# 9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

2023-yil
4-may
payshanba

№ 18 (4608)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

## INSON QADRI AZIZ



Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan barhayotdir. Xotira – kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy me-rosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi.

Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi.

3

## POYTAXTNING HUSHYOR XODIMLARI

### ONA-BOLA HAYOTINI SAQLAB QOLISHDI

Fuqarolarimiz ichki ishlar organlari xodimlari timsolida o'zining haqiqiy himoyachisini ko'radi. Ular nafaqat jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi, balki og'ir vaziyatda qolgan insonlarga o'z vaqtida yordam ham ko'rsatadi.

16



## Ma'naviyat oyligi

**O'zbekiston Respublikasi IIVning tegishli farmoyishiga asosan joriy yilning 1-may kunidan 1-iyun kuniga qadar ichki ishlar organlarida «Ma'naviyat oyligi» o'tkazilishi e'lon qilindi. Oylik doirasida joylarda ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar, davra suhbatlari, tarbiyaviy-profilaktik hamda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.**

**Amalga oshirilayotgan ishlarning bosh maqsadi – shaxsiy tarkib o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga erishish, xodimlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ona Vatanga muhabbat, xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.**

■ Navoiy viloyati



## FAXRIYLAR HAYOTI – IBRAT MAKTABI

**Hayotning past-u baland yo'llarini bosib o'tgan nuroniylarimizning tajribasi, purma'no o'gitlari yoshlar uchun ibrat maktabidir.**

«Ma'naviyat oyligi» doirasida viloyat IIBda «Uch avlod» uchrashuvi tashkil etildi. Tadbirda so'zga chiqqan ustoz faxriylar yosh xodimlarga o'zlarining hayot yo'li hamda muvaffaqiyatlarga erishish sirlari haqida hikoya qilishdi. Shuningdek, malakali xodimlarga yoshlarni yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, halol, vatanparvar, mard va jasur etib tarbiyalash borasida qimmatli maslahatlar berishdi.

■ Кашкадарьинская область



## СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ

**Сотрудники УВД Кашкадарьинской области и его территориальных подразделений посетили музей памяти жертв репрессий, расположенный в городе Карши.**

В мероприятии, организованном в рамках месячника духовности, сотрудники ознакомились с жизнью и деятельностью соотечественников, отдавших жизнь во имя свободы и независимости Родины, получили информацию об уникальных исторических экспонатах, хранящихся в музее.



■ Toshkent shahri

## KITOB YARMARKASI



**IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizda joylashgan 7531-harbiy qismda kitob yarmarkasi tashkil etildi.**

Osoyishtaligimiz posbonlarini turli nomdagi adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida o'tkazilgan ushbu yarmarkada ishtirok etgan ona Vatanimiz himoyachilari ham o'zlarini qiziqtirgan badiiy, tarixiy, ijtimoiy va siyosiy yo'nalishdagi asarlarni xarid qilib, ularning bir qismini harbiy qism kutubxonasi uchun hadya etishdi.

■ Buxoro viloyati

## «ARK» QO'RG'ONI BO'YLAB

**Ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan «Ma'naviyat oyligi» doirasida Buxoro viloyati IIB JXX hamda Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy hamda Buxoro viloyati ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan, yuridik yo'nalishning sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kirish istagini bildirgan profilaktika inspektorlaridan test imtihonlari olish jarayonlariga jalb qilingan yuzga yaqin xodimlar ishtirokida Buxoroning tarixiy obidalariga sayohat uyushtirildi.**

Buxoro shahrining qadimiy qismi, xususan, «Ark» qo'rg'oni bo'ylab o'tkazilgan sayohat tarixiy obyektlar bilan yaqindan tanishish barobarida, ularning bilimlarini yanada oshirishga zamin yaratdi.

**Sh. JALOLOV, podpolkovnik.**



# INSON QADRI AZIZ

*(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)*

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.



Guliston tumani «Dehqonobod» mahallasida yashovchi iste’fodagi mayor Abdusamad Muxtorov qariyb o‘ttiz yil davomida ichki ishlar organlarida turli lavozimlarda xizmat qildi. Faoliyati davomida jinoyat qidiruv, profilaktika yo‘nalishida samarali faoliyat olib bordi. Guliston shahar IIB boshlig‘ining o‘rinbosari, mayor Azizjon G‘iyosov, HPB inspektori, katta leytenant Furqat Mavlonov, HPB profilaktika inspektori Is’hoq Sangirov, HPB XQMB katta inspektori, kapitan Lola Sayidaliyevalar kabi shogirdlari uning bebaho o‘gitlaridan o‘rnak olib, faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda. Xotira va qadrlash kuni arafasida shogirdlar ustoz xonadonida bo‘lishdi.

*Sirdaryo viloyati.*



Uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan iste’fodagi polkovnik Qarshi Bo‘riyev ham sohaning fidoyi nuroniylaridan.

1970–1998-yillarda Surxondaryo viloyati IIB moliya-iqtisod xizmatida rahbarlik lavozimlarida mehnat qilgan faxriy yaqinda 80 yoshni qarshiladi. Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tadbirda IIV rahbariyati nomidan vazirlik Faxriylar kengashi a’zolari – iste’fodagi polkovniklar Mirazim Sagatov va O‘tkir Ahmedov ishtirok etishib, «Ichki ishlar organlari faxriy xodimi» ko‘krak nishoni hamda Faxriylar kengashining faxriy yorlig‘ini tantanali ravishda topshirishdi. O‘z navbatida, faxriy ko‘rsatilgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik uchun minnatdorlik izhor etdi.

*Surxondaryo viloyati.*

Andijon viloyati IIB JQ va TQKB xodimi, «Jasorat» medali sohibi bo‘lgan kapitan Shuhrat Zohidov 2005-yil 13-may kuni xizmat burchini bajarish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan edi. U vafotidan so‘ng II darajali «Shon-sharaf» ordeni bilan taqdirlangan. Hozirda katta o‘g‘li Ahrorbek otasining ishini davom ettiryapti.



Xotira va qadrlash kuni arafasida viloyat IIB Faxriylar kengashi raisi, iste’fodagi podpolkovnik D. Yusupov, MMI va KBTX katta inspektori, mayor H. Usmonov va hududiy profilaktika inspektori, kapitan U. Parpiyev qahramonning xonadonida bo‘lishdi.

*Andijon viloyati.*

# SIZ BILAN FAXRLANAMIZ, AHMED BOBO!

**Ahmed bobo xonadonida har yili G‘alaba bayrami ertaroq nishonlanadi. Chunki mayning oltinchi sanasida tavallud topgan kunlari. Bobo bu yil 100 bilan yuzlashadilar!**

Yaqinda yana Buxoro shahar Chashmayi Ayub ko‘chasidagi 9-raqamli tanish xonadonning darvozasini taqillatishim bilan, har galgidek, yoshi oltmishlardan oshgan Abror aka ochiq chehra bilan kutib oldi.



Mezbon bizni ichkari hovliga boshladi. Xona to‘rida «Tirik afsona»ga aylangan Ahmed boboning tetikligini ko‘rib, parvarish yaxshiligini his qildim.

Ahmed bobo urush davrini deyarli eslamay qo‘ygan. Shunday bo‘lsa-da, ancha tanish bo‘lib ketgan urush xotiralarini birgalashib esladik.

Boboning yoshlik davri og‘ir va sinovli yillarda kechdi: ota-onasidan erta ayrilib, Jamila opasining qaramog‘ida voyaga yetdi. O‘n sakkiz yoshga to‘lmay turib, barcha qatori urushga otlandi. Janglarda mardlik namunalarini ko‘rsatdi. Sovuq okopda, o‘rmon-u xarobalarda tunadi. U haftalab issiq ovqat yemadi, lekin shunday bo‘lsada, dushmanning dodini berdi.

Urushdan so‘ng A. Muhsinov viloyat bosmaxonasida ishladi. Buxoro pedagogika institutini tamomladi, bir muddat o‘qituvchilik qildi. 1969-yildan ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib, mayor unvonida pensiyaga chiqdi.

Ahmed bobo Muhsinov pensiyaga chiqqandan keyin ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi. U mahalla faollariga yaqindan yordam berib keldi. Rafiqasi Narzi aya bilan farzandlarini el-yurt koriga yarashni sharaf deb biladigan, obro‘-e’tiborli kishilar qilib tarbiyaladi. Ayni paytda nevara-yu chevaralari ellik nafardan oshdi.

– Uyimizning fayzi, tarovati bo‘lakcha, – deydi Abror aka. – Chunki dadajonimiz baxtimizga sog‘-salomatlar. Shukrlar bo‘lsinki, tinch zamonda yashayapmiz. Orzu-havasimiz ushaldi. Farzandlarimni o‘qitdim, uyli-joyli qildim. Ikki o‘g‘limni uylantirib, to‘rt nabira ko‘rdik, kenjamizni uylantirish tadorigida yuribmiz. Bularga dadamning nasihatlari va yo‘l-yo‘riqlari tufayli erishyapmiz. Baxtimizga doimo omon bo‘lsinlar...

Prezidentimizning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi farmonidan ruhlangan Ahmed bobo yana qo‘llarini duoga ochdi. Doimo holidan xabar olib turgan hududiy ichki ishlar organlari rahbarlari, sog‘lig‘ini nazorat qilayotgan shifokorlarni, ayniqsa, ham ruhiy dalda bo‘layotgan, ham amaliy yordam ko‘rsatayotgan Yurtboshimizga chin dildan minnatdorlik bildirdi.



**Suratda: Ahmed bobo hamkasblari bilan.**

**Mirzoqul AHADOV,**
**«Postda» muxbiri.**
*Buxoro viloyati.*

*Salomatlik yo'lida*

# MUTAXASSISLAR ISHTIROKIDA

**Ayni kunlarda IIV Tibbiyot boshqarmasi Sanitariya-epidemiologiya nazorati bosh markazida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari mutaxassis shifokorlari va bakteriologiya laboratoriyasi shifokorlarining malakasini oshirish maqsadida «Huquqni muhofaza qiluvchi muassasa va tashkilotlarda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlashda idoraviy laboratoriyalar ahamiyati» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tmoqda.**

Unda ichki ishlar organlari tibbiyot xizmatlari va bo'linmalari, Davlat xavfsizlik xizmati, Chegara qo'shinlari, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya Tibbiyot boshqarmalari Sanitariya-epidemiologiya xizmatlaridan mutaxassis va bakteriolog shifokorlar ishtirok etmoqda.

O'quv mashg'ulotida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi raisi o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor Nurmat Atabekov, bakteriologiya laboratoriyasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Nargiza Shodmonova singari soha mutaxassislarining ma'ruzalari tinglandi. Amaliy mashg'ulotlar esa qo'mitaning bakteriologiya laboratoriyalarida bo'lib o'tdi.

Tadbir yakunida ishtirokchilarga maxsus sertifikat beriladi.

**O'z muxbirimiz.**





*День памяти и почестей*

# ТАКОЙ БЫЛ У НАС ТОВАРИЩ...

**Когда услышал, что наш товарищ старший лейтенант Хасанхон Шукуруллаев стал жертвой дорожно-транспортного происшествия, мое сердце замерло, я долго не мог прийти в себя.**

Он был искренним человеком, быстро находил общий язык со всеми, старался поддержать тех, кто нуждался в помощи. У него был внушительный вид, на нарушителей закона это всегда действовало отрезвляюще.

Хасанхон Шукуруллаев любил свою профессию, не замечал трудностей, в самых непростых ситуациях брал ответственность на себя. Кроме того, наш товарищ обладал широким кругозором, глубокими знаниями. В качестве инспектора профилактики он осуществлял деятельность по предупреждению правонарушений и преступлений, активно работал с общественностью по укреплению правопорядка в махалле Мустакиллик, чем заслужил уважение ее жителей.

Х. Шукуруллаев окончил факультет иностранных языков Джизакского государственного педагогического университета, хорошо владел английским языком. Однако всегда стремился стать сотрудником органов внутренних дел. Начал работать помощником инспектора профилактики по охране общественного порядка в махалле Заргарлик города Джизака. Учитывая высокую результативность деятельности, его приняли на должность инспектора профилактики ОПП ОВД Зарбдарского района. С этого момента мы служили плечом к плечу.



Хасанхон был прекрасным семьянином, любящим отцом. Как только вспоминал о дочери, Мехринисохон, на его лице расцветала добрая улыбка.

...1 октября 2022 года при исполнении служебных обязанностей наш товарищ попал в дорожно-транспортное происшествие. Накануне этого дня Хасанхону Шукуруллаеву было присвоено очередное звание старшего лейтенанта.

**Аббос УКТАМОВ,**
**старший лейтенант.**
*Джизакская область.*

*Становление*

# НЕРАЗРЫВНОСТЬ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

**Экспертам-криминалистам должны быть присущи такие качества, как кропотливость, усидчивость, внимательность. Это однозначно. Профессиональные же знания и навыки они приобретают в ходе обучения, осуществляемого в неразрывной связи теории и практики.**

Эксперты-криминалисты привлекаются к осмотру места происшествия, участвуют в иных следственных действиях, содействуют в проведении оперативно-розыскных мероприятий. Служба у них интересная, при этом достаточно трудная, а потому в профессии остаются по-настоящему увлеченные люди.

Особое значение в формировании высококвалифицированного эксперта имеет институт наставничества, когда специалисты, имеющие за плечами многолетний стаж экспертно-криминалистической деятельности, обучают молодежь тонкостям профессии.



В УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района столицы опытные эксперты регулярно проводят практические занятия для курсантов Академии МВД Республики Узбекистан, в ходе которых будущие специалисты оттачивают навыки работы с приборами и оборудованием, материалами и реактивами, с программным обеспечением.

При проведении занятий в задачи наставника входят организация выполнения заданий в соответствии с методикой, постановка целей и расстановка приоритетов, обеспечение обучающихся методическими пособиями, необходимым раздаточным материалом и др. Важнейший момент – ориентировать курсантов на самостоятельное решение проблем, возникающих по ходу производства учебной экспертизы.

**Соб. корр.**

*Саломатлик йўлида*

# ХАЛҚАРО ТАЖРИБА

## тиббий хизмат сифатини ошириш омилидир

**Тиббиётдаги янгиланишлар, айниқса, соҳага татбиқ этилаётган замонавий ёндашувларнинг бевосита амалиётга кўчишида шифокорларнинг малакасини ошириш, халқаро тажрибани ўрганиш ниҳоятда муҳимдир. ИИВ Марказий госпиталида ҳам бу борада тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, яқинда тиббиёт муассасасининг бир гуруҳ шифокорлари Ҳиндистонда бўлиб, жарроҳлик йўналиши бўйича малака ошириб қайтишди.**



**Анвар РАДЖАБОВ, ИИВ Марказий госпитали бошлиғининг жарроҳлик йўналиши бўйича ўринбосари, майор:**

– Муассасамизда замонавий жарроҳлик блокининг ташкил этилиши шифокорларга ҳам, беморларга ҳам қатор қулайликлар яратди. Европа стандартларига тўлиқ жавоб берадиган замонавий тиббий жарроҳлик асбоб-ускуналари билан жиҳозланган ушбу блоки жарроҳлик амалиётларини тўла-тўкис олиб бориш имконини бериши баробарида, халқаро тажрибани ўрганиш ва амалиётга янги йўналишларни жорий этишни тақозо этади. Айнан шу мақсадда Ҳиндистоннинг Nyu-Dehli шаҳридаги PSRI ҳамда APOLLO HOSPITALда малака ошириб қайтдик. Икки томонлама ҳамкорлик доирасида асосан кам инвазив мураккаб ҳамда лапароскопик жарроҳлик амалиётлари бўйича тажриба алмашдик.

Ривожланган давлатлар тиббиётидаги умумий жарроҳлик ҳамда қорин бўшлиғи аъзолари касалликларида имкониятлари кенглиги билан лапароскопия ва робот жарроҳлиги кенг оммалашган. Бизнинг тиббиёт муассасамизда эса ошқозон, ўн икки бармоқли ва йўғон ичаклардаги лапароскопик жарроҳлик амалиётлари жуда кам амалга ошириларди. Тўғрироғи, улар очиқ, анъанавий усул билан қилинарди. Бу усулнинг камчилиги шундаки, беморнинг реабилитация даври узоқ давом этади, ҳар хил асоратлар, масалан, ичак тутилишлари кузатилиб, қайта жарроҳлик амалиётига муҳтожлик пайдо бўлиши мумкин. Лапароскопик жарроҳликдан кейин эса бемор ўша куннинг ўзида фаоллаштирилади ва эҳтимолий асоратлар юқори даражада камаяди. Яъни, жароҳатларнинг битиши, жароҳат ҳажми ва беморнинг реабилитация даври жуда қисқаради. Кўриниб турибдики, бу йўналишда ўрганганларимиз муассасамизда жарроҳлик амалиётларини сон ва сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқишга хизмат қилади.





**Мурод ТЎЙЧИЕВ, ИИВ Марказий госпитали умумий жарроҳлик бўлинмаси шифокор-жарроҳи, тиббиёт фанлари номзоди:**

– Малака ошириш жараёнида робот жарроҳлик усули билан ҳам танишдик. Одатда анъанавий ҳамда лапароскопик усулдаги жарроҳлик амалиётлари 2-3 жарроҳ томонидан амалга оширилади. Бунда эса фақатгина битта жарроҳнинг ўзи етарли бўлади. Чунки роботнинг камида тўртта ёки бешта қўли бўлади ва улар битта жарроҳ томонидан бошқарилади. Жарроҳлик амалиёти замонавий белгиланган дастур бўйича олиб борилади. Муайян хатоликлар юзага келганида эса ўз-ўзидан тўхташ хусусияти ҳам мавжуд.

Ўзаро тажриба алмашиш жараёнида робот ва лапароскопик усулдаги жарроҳлик амалиётларининг кўплаб турлари борасида тажрибамизни бойитишга муваффақ бўлдик. Роботик ошқозон резекцияси, лапароскопик ошқозон резекцияси, лапароскопик адреналэктомия, лапароскопик герниопластика, лапароскопик гемиколэктомия ва колэктомия, лапароскопик фундопликация, лапароскопик пиелопластика шулар жумласидан.

Қувонарлиси, икки томонлама ҳамкорлик беморларга сифатли тиббий хизмат кўрсатиш имкониятини беради. Бу бевосита истиқболдаги режаларимиз, яъни, шифокор, ўрта тиббий ходимларимиз дунё мамлакатлари тажрибасини ўрганиб, малака ошириб, билим савияси, тажрибасини оширишидек мақсадга хизмат қилади.

**Носиржон ҲАСАНОВ, ИИВ Марказий госпитали ихтисослаштирилган жарроҳлик бўлинмаси шифокор-офтальмологи:**

– Госпиталимизда кўз жарроҳлик амалиёти бўйича энг замонавий ҳисобланган Американинг Bausch Lomb фирмасининг Факоэмульсификатор ҳамда Германияда ишлаб чиқарилган офтальмологик микроскоп бор. Бу ускуналар ёрдамида беморларда кам инвазив офтальмологик жарроҳлик амалиётларини ўтказиш мумкин. Аммо шу кунга қадар катаракта жарроҳлик амалиётларида бошқа тиббиёт муассасаларининг консультант врачлари хизматидан фойдаланар эдик. Энди бундай амалиётларни ўзимиз амалга ошириш имкониятига эгамиз. Ҳиндистонда малака ошириш жараёнида катаракта бўйича турли даражадаги катарактали беморларга комплекс индивидуал ёндашувни ўргандим. Одатда турли хилдаги кўз ичи линзалари мавжуд. Улардан унумли фойдаланиш беморнинг кўриши яхшиланишини олдиндан айтиб бера олиш имконини беради. Ўқиш давомида мана шу жиҳатни



мукаммал ўрганишга ҳаракат қилдим. Эндиликда хорижий тажриба асосида жуда кам учрайдиган кўз касалликларини ташхислаш ва даволаш усуллари, шох парда трансплантация жарроҳлик амалиётларини йўлга қўйишни мақсад қилганмиз.

### ХУЛОСА ЎРНИДА

**Бугун ҳар бир соҳа янгича ёндашувни талаб қилаётгани ҳеч биримизга сир эмас. ИИВ Марказий госпитали мутахассисларининг хорижий тажрибани ўрганиши ва амалиётга бевосита татбиқ этиши эса ички ишлар органлари ходимлари, уларнинг отаонаси, оила аъзолари, соҳа фахрийлари ва уларнинг оила аъзолари ҳамда бириктирилган бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ваколларига сифатли тиббий хизмат кўрсатишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.**

**Гулноза ТУРГУНБОЕВА, «Postda» мухбири.**

*Безопасный туризм*

# ВСЕГДА РАДЫ ГОСТЯМ!



**После окончания Ташкентского государственного юридического университета по специальности «Юриспруденция», Мухаммад принял решение встать в строй правоохраны по линии деятельности туристической полиции.**

В пользу сделанного выбора имелись весомые аргументы – Мухаммада всегда привлекала сфера туризма: путешествия, традиции и обычаи народов мира, достопримечательности разных стран. При этом он в совершенстве владеет английским и французским языками.

– Вот так и сложилось в моей жизни, – рассказывает старший инспектор профилактики правонарушений отдела обеспечения безопасного туризма УВД Бостанлыкского района лейтенант Мухаммад Тожибоев. – Мне удалось осуществить мечту, теперь применяю полученные знания и навыки в служебной деятельности, в общении с туристами, прибывшими в наши края. Работа интересная, стараюсь как можно больше почерпнуть для себя, приумножить знания. Хочу отметить, что Бостанлыкский район представлен уникальными уголками природы, зонами отдыха, местными достопримечательностями, традициями и широким разнообразием национальной кухни. Туристы из разных регионов Узбекистана, ближнего и дальнего зарубежья стремятся побывать здесь, отдохнуть, набраться впечатлений. Наша же задача – обеспечить безопасность гостей, чтобы ничто не омрачило их пребывание. Конечно, за этим стоит большой, кропотливый труд сотрудников, работающих слаженно, в тесном контакте с другими подразделениями. У нас самые современные средства и техника, что в значительной степени делает эффективной деятельность туристической полиции. Большое значение имеет профилактическая работа среди гостей нашего района. Частые встречи с отдыхающими, руководством и персоналом зон отдыха, курортов и санаториев, беседы на тему безопасности и соблюдения установленных правил дают положительный результат, ведут к предупреждению преступлений и правонарушений. Мы рады гостям, наш долг – сделать так, чтобы у них остались приятные и светлые впечатления на многие годы.

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**
*Ташкентская область.*

*Место службы – Караульные войска*

# ИДТИ ВПЕРЕД

**Народ уважает людей в форме, ведь они – символ храбрости, доблести и отваги.**

Умржон Ширинов, уроженец Вабкентского района Бухарской области, срочную службу проходил в воинской части № 7531 Караульных войск МВД Республики Узбекистан, дислоцированной в городе Ташкенте. После демобилизации принял решение стать военнослужащим. Старшие члены семьи его поддержали: «Пусть и в нашем роду будут военные».

Умржон подал заявление в командование Караульных войск МВД. После успешного прохождения испытаний, был принят во 2-й взвод 1-го батальона воинской части № 7531. Служил добросовестно, проявляя настойчивость и





целеустремленность в выполнении поставленных задач.

В 2018 году героя очерка перевели в воинскую часть № 7551, дислоцированную в Караулбазарском районе Бухарской области. Сейчас он занимает должность начальника караула 1-го батальона воинской части № 7536.

– Все, чего я добился в ходе службы, это, прежде всего, благодаря поддержке и требовательности наставников – сержанта Шерзода Тешабоева, старших сержантов Жамола Алимова, Одила Фозилова, – говорит младший сержант Умржон Ширинов. – Они всегда наставляли преданно и честно служить Родине. Горжусь, что являюсь учеником таких людей.

Девиз младшего сержанта У. Ширинова такой же, как и у других самоотверженных воинов: к каждому делу подходить с большой ответственностью, всегда идти вперед, не останавливаясь на достигнутом.

**Соб. корр.**
*Бухарская область.*

*Хотира – мангу*

# АДАШИБ КЕЛГАН «ҚОРАХАТ»

**Отам Бобораҗаб Маттиев жуда оғир шароитда, моддий етишмовчиликлар даврида вояга етган. Оилада 4 қиз бўлиб, отам ёлғиз ўғил эди. Шунинг учун момом уни еру кўкка ишонмасди, уруш бошлангач, «Ўғлимни фронтга юборса нима қиламан?!» деб юрагини ҳовучлаб юрарди.**

1942 йил бошларида отамга чақирув қоғози келади. Момом эса уни урушга жўнатмаслик учун бор амалини ишга солган – турли идораларга борган. Аммо отам жуда ориятли, мағрур инсон бўлган. Шунинг учун тўрт опа-синглиси ва онасининг доду фарёдига қарамай, фронтга жўнаб кетган.

– 1942 йилнинг ёзи эди, – дея аччиқ хотираларини айтиб берарди момом. – Уруш авжига чиққан кезлар. Кармана туманидаги биз яшайдиган «Дўрмон» қишлоғидан ҳам ўнлаб йигитлар фронтга кетган. Уларнинг ота-оналари туну кун фарзандига омонлик тилаб дуо қилишарди. Кимнингдир хонадонида йиғи-сиғи товуши эшитилса, ҳамма ўша хонадонга бориб, кўнгил сўрардилар. Чунки бу хонадонга «қорахат» келган бўларди.



Ҳар гал кимгадир «қорахат» келганида, «Эй Худо, яккаю ягона ўғлимни ўзинг паноҳингда асрагин, манга раҳминг келсин!» – деб Яратгандан сўраб йиғлардим. Уруш тугашидан чамаси бир йилча аввал отангдан ҳам «қорахат» келди. Шунда ҳам умидимни узмай, дуо қилавердим.

Буни қарангки, онанинг кўнгли сезар экан. Ниҳоят уруш ғалаба билан тугагач, отам уйга кириб келади. Ўғлининг тирик эканини момомнинг қалбидаги доғини аритади. Улар умрининг сўнгигача қадар отамнинг ва бизларнинг бахту саодатимизни тиладилар.

Отамнинг урушдан кейинги тақдири ҳам Ватан ҳимояси, аниқроғи, тинчлик-осойишталик муҳофазаси билан боғланди. Кармана тумани раҳбари унга ички ишлар органлари тизимида хизмат қилишни тавсия этди. Отам табиатан қийинчиликдан чўчийдиган инсон эмасди. Шунинг учун бир лаҳза ҳам иккиланиб ўтирмай, бу таклифни қабул қилган.

У ИИВ Тошкент олий милиция мактабини тамомлагач, туманимизда участка нозири лавозимида иш бошлади. Ўз касбини, вазифасини ор-номус иши деб биларди. Уйимизга ёрдам сўраб келган одам борки, норози бўлиб кетмасди. Шу боис таниган-билганлар, қўни-қўшни – ҳамма уни ҳурмат қиларди, яхши кўрарди.

Отам 1976 йилгача паспорт тизимида, 1978 йилга қадар вояга етмаганлар билан ишлаш соҳасида хизмат қилиб, майор унвонида пенсияга чиқдилар У байрамона кийимини кийганида, кўкси тўла орден-медалларни кўриб, уларнинг қай бирини урушдаги қайси қаҳрамонлиги учун олганлигини укам иккимиз сўрайвериб, ҳоли жонига қўймасдик.

Отам бизлар унинг касбини давом эттиришимизни жуда-жуда хоҳлардилар. Мен ота изидан бориш мақсадида 1982 йилдан Навоий (ҳозирги Кармана) тумани ИИБ иқтисодий жиноятларга қарши курашиш бўлинмасида хизмат қила бошладим. Шу касб ортидан обрў-эътибор орттирдим.

Қарийб 12 йил ички ишлар органлари соҳасида хизмат қилганимдан сўнг, бўлинмамиз тугатилганлиги сабабли, фаолиятимни солиқ тизимида давом эттирдим. Бобораҗаб Маттиевнинг фарзанди эканлигимдан доимо фахрланаман. Боиси, ҳар гал отамни таниганлар, билганлар мени кўриб қолсалар, уни яхши сўзлар билан хотирлайдилар, унинг ҳаққига дуо қиладилар. Ўша лаҳзаларда қалбимда таъриф этиб бўлмайдиган ғурур пайдо бўлади.

Оталаримиз Ватан учун кўрсатган қаҳрамонлигини, жасоратини доимо ёдда тутмоғимиз лозим. Биз кексалар бугунги дориламон кунлар учун Яратганга беадад шукроналар қиламиз. Гўзал она диёримизнинг тинчлик-осойишталигини асраш ҳар бир йигитқизнинг фарзандлик бурчи деб биламан.

**Рустам МАТТИЕВ.**

# ЖАСОРАТИ ҚАЛБЛАРДА ЯШАР

**Сурхондарё вилоятининг Сариосиё ва Узун туманларидаги тоғли ҳудудларни ёвуз ниятли террорчилардан ҳимоя қилиш мақсадида олиб борилган жанговар ҳаракатларда Шаҳрисабз тумани ИИБ Қўриқлаш бўлими милиционери, кичик сержант Абдиҳалим Тошқулов ҳам бор эди.**

Китоб туманидаги Сарой қишлоғида туғилган Абдиҳалим мактабни тугатгач, техникумда ўқиб, ҳисобчилик касбини эгаллади.

Ҳарбий хизматга бориб қайтган Абдиҳалим 1994 йили ички ишлар органлари хизматига кириш учун ҳужжатларини топширди ва Шаҳрисабз тумани ИИБ Қўриқлаш бўлимида милиционер лавозимида хизмат фаолиятини бошлади.

...Кутилмаган машъум хабар Абдиҳалим Тошқуловнинг ота-онаси, яқинлари ва ҳамкасбларини чуқур қайғуга солди. Бироқ бир юпанч уларга тасалли бўлди. У юрти тинчлиги йўлида жонини фидо этди. Мард ўғлоннинг номи мангуликка муҳрланди.

– Саккиз йил ширин турмуш кечириб, тўрт фарзандли бўлдик. У киши ҳалок бўлганида тўнғич қизим мактабга чиқиш арафасида, кенжамизнинг эса ҳали чилласи ҳам чиқмаганди, – дея хотирлайди Абдиҳалим Тошқуловнинг турмуш ўртоғи Дилшода опа. – Жуда меҳнаткаш инсон эди, бир дам қўли бўш турмасди. Меҳнат одамни улуғлайди, дерди ҳар гал.

Дилшода опа фарзандлари, невaралари қуршовида суратли альбомни варақлайди. Абдиҳалим аканинг суратларига боқиб, невараларига бобосининг қаҳрамонлиги ҳақида сўзлаб беради...



– Биз мактабда у билан бирга ўқиганмиз. Меҳнатсевар, лафзида турадиган, ўзгаларга ҳиммат кўрсатадиган йигит эди, – дейди марҳум Абдиҳалим Тошқуловнинг синфдоши Йўлчи Хуррамов. – Ўшанда у жангда сира ортга чекинмади, дейишди. У ҳаётдаям қийинчиликлардан асло ҳайиқмас, мақсадидан чекинмасди.

Марҳум Абдиҳалим Тошқуловнинг фарзандлари эл корига камарбаста фарзандлар бўлиб улғайди. Катта фарзанди Дилором ҳамшира, Гулҳаё бола тарбиясида. Учинчи фарзанди кичик сержант Шаҳзод Жумабоев ота касбини давом эттирмоқда. Ҳозир у Миллий гвардиянинг Қашқадарё вилояти Қўриқлаш бошқармаси ходими.

Марҳум кичик сержант Абдиҳалим Тошқуловнинг жасорати авлодлар учун ибрат мактаби бўлиб қолади. Зеро, мардлар асло ўлмайди, уларнинг жасорати мангу яшайди.

**Абдиманноб АЛЛАЁРОВ, подполковник.**
*Қашқадарё вилояти.*

Профилактика хизмати

# ЖИНОЯТНИ ЖИЛОВЛАЁТГАН КАПИТАНЛАР

## Жиззах вилояти

**Янгиобод тумани ИИБ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси профилактика катта инспектори, капитан Баҳодир Султонмуродовни ҳамкасблари соҳа фидойиси сифатида қадрлашади. Бундай ҳурматга самимийлиги, ҳеч кимдан ёрдамини аямаслиги ҳамда ишига сидқидилдан ёндашиши орқали эришган. Қолаверса, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш борасида яхшигина тажрибага эга.**



Ички ишлар органларидаги фаолиятини 2015 йилда Сирдарё вилояти ИИБ 13-тергов ҳибсхонасининг тартибот ва қўриқлаш бўлими назоратчиси лавозимида бошлаган Баҳодир Султонмуродов 2020 йилдан буён Жиззах вилояти Янгиобод туманида хизмат қиляпти. Айни пайтда у «Дўстлик» қишлоқ фуқаролар йиғинида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашга масъул.

Капитан хизмат фаолиятини аҳолининг турмуш тарзига, қишлоқларнинг табиий шароитига мос ҳолда юритади. Чунончи, асосий даромади деҳқончилик билан боғлиқ пасткичақирликларни мавсумий ишчиларни ёллашда қонунларга амал қилишга ундайди. Ўз навбатида, бошқа ҳудудлардан ишлаш учун келган шахслар билан мулоқотда бўлиб, уларнинг ҳисобини юритади.

Намингонликлар эса чорвачилик билан шуғулланади. Шу боис, катта инспектор уларни чорва молларини қаровсиз қолдирмаслик ҳамда қўй ва молларни сотиш ва олишда насияга бермаслик юзасидан огоҳлантиради. Баҳодир Султонмуродов Тожикистон Республикаси сарҳадларига ёндош Чаканд қишлоғига алоҳида эътибор қаратади. Ушбу манзилда яшовчилар иштирокида чегарадан ноқонуний тарзда юк ҳамда гиёҳвандлик моддалари ўтказилишининг олдини олиш, паспорт режимига амал қилиш нуқтаи назаридан тарғибот тадбирлари ўтказади.

Ҳудуддаги қўтонлар, алоҳида жойлашган биноларни кўздан кечиришни унутмайди. Овчилар, чўпонлар, киракашлар, юк машиналари ҳайдовчилари ва асаларичилар билан суҳбат ўтказишни канда қилмайди. Унинг ташаббуси билан «Дўстлик» маҳалласига кириб келадиган асосий йўлга 2 та видеокузатув қурилмаси ўрнатилди. Табиийки, ушбу тадбирлар ўз самарасини бермоқда. Баҳодир Султонмуродовга бириктирилган ҳудудда ўтган йили ҳам, жорий йилнинг ўтган даврида ҳам бирорта жиноят қайд этилмади.

Яна бир маълумот: вилоятнинг энг чекка туманларидан бири бўлмиш Янгиобод туманидаги 8 та маҳалланинг 7 таси «яшил», 1 таси «сариқ» тоифада. Бу кўрсаткич замирида профилактика катта инспектори, капитан Баҳодир Султонмуродов сингари посбонларнинг фидокорона хизмати мужассам, десак, янглишмаймиз.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**«Postda» мухбири.**

## Наманган вилояти

**2300 нафар аҳоли истиқомат қиладиган Чортоқ туманидаги «Ойқирон» маҳалласи туман марказига яқин бўлгани учун ҳам ҳудудда савдо марказлари, ишлаб чиқариш корхоналари, ўқув марказлари бисёр. Кўчалар ораста, хонадонларда файзиёблик ҳукмрон. Аҳолининг аксарият қисми тадбиркорлик билан шуғулланади. Шунингдек, маҳаллада чилангарлик устахонаси, эркаклар кийимларини ишлаб чиқарувчи корхона ишлаб турибди.**

Маҳалланинг катта ютуқларидан яна бири олти йилдан буён ҳудудда жиноят умуман содир этилмаган. Бунда профилактика катта инспектори, капитан Баҳромжон Инамовнинг муносиб ҳиссаси бор.

– Барча ижобий натижаларга маҳалламиздаги соғлом муҳит туфайли эришиляпти, – дейди маҳалла раиси Собиржон Болтабоев. – «Ойқирон»ни зиёлилар маҳалласи деб аташади. Ёшлари илм олишга чанқоқ, бўш одамнинг ўзи йўқ. Баҳромжоннинг фидойилигини эса алоҳида таъкидлаш керак. У эринмайдиган, бошлаб қўйган ишини охирига етказадиган йигит. Ҳар ойда маҳаллада ёшлар ўртасида спорт мусобақаларини ташкил этишда ҳам у бош-қош. Хонадонма-хонадон юриб, муаммоларни ўрганиши, ҳал этиш чораларини кўриши, тунги вақтларда кўчаларни айланиб, назорат қилишдан эринмаслиги – буларнинг бари унга бўлган ҳурматимизни оширади.

1986 йили Чуст туманида туғилган Баҳромжон Фарғона давлат педагогика институтини тамомлагач, ички ишлар органларидаги фаолиятини 2012 йилда Поп тумани ИИБ ҳузуридаги қўриқлаш бўлимида бошлади. 2017 йилда «Ойқирон» маҳалласига профилактика инспектори этиб тайинланди.

Профилактика инспектори ҳудудда муқаддам судланганлар билан ҳар ойда учтўрт маротаба профилактик суҳбат ўтказиб, уларни иш билан таъминлаш чораларини кўради.

Маҳаллада «Фидойи ёшлар» отряди ташкил қилинган бўлиб, тунги вақтларда маҳаллага кириб-чиққан бегона шахслар, автомашиналар рўйхатга олинади. Шубҳали шахслар аниқланса, уларни туман ИИБга топшириш чоралари кўрилади. Яқинда ушбу отряд аъзолари қаровсиз қолдирилган велосипедни ўз эгасига етказиб бердилар.



Баҳромжон яхши оила соҳиби ҳам. Турмуш ўртоғи Сайёра Абдуллаева тумандаги 9-мактабда ўқитувчилик қилади. Уч нафар фарзанди бор.

– Касбингни севсанг, оиланг тинч бўлса, ҳалол ризқ топсанг, ишингда унум бўлади, – дейди капитан Баҳромжон Инамов. – Мен бугун касбим туфайли буларнинг ҳаммасига эришяпман.

Ҳа, чиндан ҳам у орзуларига меҳнати, яхши фазилатлари орқали эришмоқда.

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,**
**«Postda» мухбири.**

*Орамиздаги одамлар*

# МОҲИР ЖУРНАЛИСТ, УСТА ГУЛЧИ

**Норин туманининг 3-секторида жойлашган «Пастки Чўжа» маҳалласида истиқомат қилувчи Зокиржон Йигиталиев кўпчиликка қалби гул ижодкор сифатида танилган. Туман, вилоят, республика матбуотида баракали ижод қилган ҳамюртимиз кексалик йилларини ҳам мазмунли ўтказмоқда. Зокиржон акани бугунги кунда қўли гул деҳқон сифатида яхши билишади. У бугунги кунда иссиқхона ташкил этиб, гулчилик соҳасини ривожлантиришга катта ҳисса қўшмоқда.**

25 сотих томорқасининг 5 сотихида иссиқхона ташкил қилган Зокиржон ака энг ноёб гулларнинг 30 га яқин турини парваришламоқда. Масалан, Канаданинг пакана олчаси номи билан машҳур гулнинг меваси уч хил тусда пишиб етилади. Бу ноёб ўсимликдан астмани даволашда фойдаланилади.



Бир сотих жойдан 17–20 миллион сўмгача даромад топаётган қаҳрамонимиз маҳалладошларини мавсумий иш билан таъминламоқда. Бугун нафақат «Пастки Чўжа» маҳалласида, балки учинчи сектордаги бошқа маҳаллаларда Зокиржон акадан ибрат олиб, гул етиштирувчилар сафи ортмоқда.

– Зокиржон аканинг гулчилик борасидаги тажрибаларини сектордаги барча маҳаллаларда ўрганиб, бу борада ишлар бошлаб юборилди. Таъкидлаш керакки, гулчининг биринчи харидори ҳам ўзимиз. Кўчалар, гузарлар, хонадонларни уста гулчи етиштирган анвойи гуллар безаб турибди, – дейди Норин тумани ИИБ ҲПБ катта инспектори, майор Нодирбек Қипчоқов.

Инсон ҳамиша гўзаллик шайдоси, айниқса, чиройли ва мафтункор гулларни кўрганда руҳиятингиз ором олади. Кўзингиз қувнайди.

– Ҳалол меҳнатинг ортидан зиммангдаги фарзларни адо этишдан ортиқроқ бахт бўлмаса керак. Умрингни чиройли амаллар билан ўтказишга нима етсин! – дейди у.

Зокиржон аканинг ибратга тўла сўзлари, қалб тўла орзулари унинг гулзорида, гулларида намоён бўлмоқда гўё. У ҳозирда Наманганда ўтказиладиган 62-Халқаро гуллар фестивалида иштирок этишга тайёргарлик кўрмоқда.

**Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Наманган вилояти.*



# ПОТЕРЯВШИЙСЯ МАЛЬЧИК ПЕРЕДАН РОДНЫМ

2 мая 2023 года в 19:50 на вокзале станции Келес сотрудниками ППС Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона рядовыми Шерзодом Ашуровым и Фарходом Кахрамоновым был замечен мальчик примерно 3-4 лет без сопровождения взрослых.

Сотрудники попытались разговорить малыша. Он назвал свое имя – Билол, но сообщить о том, кто его родители, где живет, не мог.

В скором времени в результате принятых мер встревоженную маму «потеряшки» нашли. Мальчик в добром здравии передан родным.

**Соб. корр.**

■ Самаркандская область

# МЫ – ОБРАЗЦОВАЯ СЕМЬЯ

**Семья старшего лейтенанта Зафара Хатамова на днях прославила родной Кошрабадский район, заняв первое место в областном этапе конкурса на звание образцовой семьи. Конкурс проводился среди 15 семей сотрудников органов внутренних дел.**

В органах внутренних дел Зафар Хатамов с 2020 года.

– Инспектор профилактики – главное связующее звено между органами внутренних дел и населением, – считает наш собеседник. – Именно он ближе других сотрудников ОВД находится к людям. Если наладить конструктивный диалог, граждане будут доверять. Ко мне обращаются по самым различным вопросам, будь то жалобы на ненадлежащее поведение соседей или буйного мужа... Выслушивая людей, стараюсь уладить конфликт и не доводить до крайности.

На своем участке старший лейтенант хорошо знаком с контингентом, от которого можно ждать неадекватного поведения. Под особым вниманием ранее судимые, состоящие на учете. Их в махалле около 20 человек.




Ежедневное общение с людьми, находящимися в эмоциональном напряжении, требует уравновешенности, выдержки, терпения.

Переключиться и увидеть, что мир вокруг прекрасен и многообразен, помогают две замечательные дочки, любящая супруга и книги. Кстати, благодаря чтению книг семья Хатамовых опередила соперников и одержала победу в смотре-конкурсе.

– Вечера посвящаем чтению книг, они нам заменяют соцсети, – говорит З. Хатамов. – Это позволяет нам развиваться духовно. Основательно готовились к конкурсу. Наши соперники также выступили достойно, заслуживают признания. Рады, что приняли участие в таком замечательном мероприятии, которое мотивирует каждую семью быть образцовой.

**Замира БАЛТАЕВА,**
**корреспондент**
**«На посту».**
**Фото автора.**

*Zamon bilan hamnafas*

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – TARAQQIYOT GAROVI

**Hayotimizning turli sohalariga axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo'liga o'tishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar rivojiga ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, bu jarayon ichki ishlar organlarida ham jadal sur'atlarda kechmoqda.**

**Tizimga axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida IIV Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, kapitan Umidjon Adizov biz bilan suhbatda shunday dedi:**



*Safdor Azizbek Saparboyev.*



*Leytenant Doniyor Ilhomov.*



*Podpolkovnik Mustaqim Muhamedov.*

Prezidentimizning «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni asosida mahallalarda jinoyatlarni muhokama qilish jarayonlarini masofadan turib nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqildi.

Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokamasini o'tkazish hamda hisobotlarni elektron tarzda monitoring qilib borish maqsadida vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan «E-Muhokama» kompleks axborot tizimi xizmat faoliyatiga joriy etilishi natijasida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida 13189 ta jinoyat muhokamasiga oid hisobotlar elektron tarzda shakllantirildi.

Bunda, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi birlamchi axborotlari hamda sudlar tomonidan taqdim etilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar to'g'risidagi axborotlar, shuningdek, muhokamada ishtirok etgan davlat organlari hamda tashkilotlar ro'yxati va o'zaro ma'lumotlarni almashish axborot tizimi yordamida elektron tarzda amalga oshirildi. Shu bilan birga, farmonga muvofiq, «Elektron jinoiy-huquqiy statistika» yagona axborot tizimi to'liq modernizatsiya qilinib, «respublika–viloyat–tuman–mahalla» kesimida jinoyatlar tahlilini onlayn kuzatish mexanizmlari yaratildi.

Yangi tizimda aholi soniga nisbatan jinoyatlar yuqori hududlar «qizil» rangda, aholi soniga nisbatan jinoyatlar kam hududlar «sariq» rangda, jinoyat sodir etilmagan hududlar «yashil» rangda ko'rsatilgan bo'lib, bu «Huquqiy statistika markazi» tomonidan mahallalar kesimidagi jinoyatlarni to'liq tahlil qilib berish imkonini beradi.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining Situatsion markazlarini tashkil etish bo'yicha vazirlikning buyrug'i bilan bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Asosiy vazifalari Respublika hududidagi barcha mahallalar kesimida tezkor va kriminogen vaziyat haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish va ularni dolzarb holatda saqlash, vaziyat rivojlanishini prognozlash, kuch va vositalarning o'z vaqtida jalb etilishini hamda sodir bo'lgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh etilishini nazorat qilish hisoblangan Situatsion-tahliliy markazi integratsiyalashgan Yagona platforma orqali boshqariladi.

Yagona platforma imkoniyatlari o'tgan yili Samarqand viloyatida SHHT sammitini o'tkazish davomida muvaffaqiyatli aprobatsiyadan o'tkazildi. Bunda, faoliyatda qo'llanilayotgan barcha axborot tizimlari o'zaro integratsiya qilinib, yagona nuqtadan sodir etilgan jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarni qayd etish («102» tizimi), kuch va vositalarni harakatga keltirish, turar va noturar obyektlar, aholi demografiyasi, profilaktik shaxslar hisobi, qurol hisobi va turizm obyektlari, GPS va planshetlar orqali xodimlar va xizmat avtomashinalarini nazorat qilish, fuqarolardan kelib tushayotgan ariza va shikoyatlar tahlilini yuritish orqali elektron xaritada ijtimoiy holatni nazorat qilish modullari yaratildi.

Situatsion-tahliliy markazga ulangan, jamoat joylarida o'rnatilgan kuzatuv kameralari tasvirlari orqali qidiruvda bo'lgan shaxslarni, shu jumladan, gumon qilinuvchilarni real vaqt rejimida yuz qiyofasidan aniqlash tizimi ishga tushirildi.

Bundan tashqari, IIV Ekspert-kriminalistika bosh markazining Shaxsni avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimi to'liq modernizatsiya qilinib, sig'imi 575 Tb hajmga ega va 40 mln. nafar shaxsning qo'l barmoq izlari va yuz qiyofasining biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha qayta ishlaydigan server va avtomatlashtirilgan axborot ta'minot dasturi ham o'rnatildi. Natijada 2022-yil boshidan hozirga qadar tizimga biometrik hujjat (ID-karta va xorijga chiqish pasportini) olish uchun kelib tushgan jami 5,5 mln.ga yaqin elektron talabnomalar avtomatik identifikatsiya qilingan. Bu jarayonlarda 80 mingdan ortiq biometrik hujjatlarning noto'g'ri rasmiylashtirilishi oldi olingan.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi «E-ma'muriy ish» – yagona axborot tizimi yaratilib, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar (55 dan ortiq) hamda 48 mingdan ziyod foydalanuvchilar, 13 mingdan ortiq planshet qurilmalari ulanib, «Yagona billing» tizimi va Oliy sudning «E-XSUD», Majburiy ijro byurosining «MIB Portal» tizimlari bilan bog'landi.

Elektron hukumat yo'nalishida, Davlat xizmatlari yagona reyestriga muvofiq ichki ishlar organlari tomonidan 55 ta davlat xizmatlari ko'rsatilishi belgilangan bo'lib, hozirgi kunda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali jismoniy va yuridik shaxslarga 31 ta davlat xizmatlari elektron tarzda ko'rsatib kelinmoqda.

Qayd etish joizki, «Xavfsiz shahar» tizimlarini yaratish va rivojlantirish doirasida mahallalardan boshlab respublika bo'ysunuvidagi shaharlargacha teng darajada raqamlashtirish, telekommunikatsiya infratuzilmasi, axborot resurslari hamda tizimlarga qo'yiladigan texnik talablarga to'liq muvofiqlashtirishga erishish ko'zda tutilmoqda.

Muxtasar aytganda, ushbu chora-tadbirlarning barchasi fuqarolarimiz uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni ko'zlab qilinmoqda. Ularning samarali ijrosi yurtimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surishiga, barqaror rivojlanish bardavom bo'lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

**«Postda» muxbiri**
**Sarvar SOBIROV yozib oldi.**

Konsepsiya – amalda

# TALABCHANLIK VA G‘AMXO‘RLIK UYG‘UNLASHGANDA...

**So‘nggi yillarda jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha samarali ishlar yo‘lga qo‘yildi. Albatta, mazkur jarayonda jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining qonuniylikka va tartib-intizomga qat’iy amal qilishi, muomala madaniyatini, bilim saviyasini va tashabbuskorlik kabi qobiliyatlarini oshirib borish ham zarur hisoblanadi.**

**Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Oltinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markaziga qarashli 2-son tergov hibsxonasida bo‘ldik.**

– Muassasa shaxsiy tarkibi bilan, fuqarolar bilan o‘zaro munosabatda xushmuomalada bo‘lish, noqonuniy aloqalarni keltirib chiqaruvchi muloqotlar tashkil etmaslik, maxsus kontingentga nisbatan ruhiy va jismoniy tazyiq o‘tkazmaslik borasida profilaktik-tushuntirish ishlari olib boriladi. Tergov hibsxonamizda tergov jarayoni va saqlash sharoitlarining shaffofligini ta’minlash maqsadida zamonaviy videokuzatuv moslamalari o‘rnatilgan. Shuningdek, maxsus kontingent uchun Ombudsmanga, prokurorga yozma murojaat etishi uchun mo‘ljallangan alohida qutilar o‘rnatilgan, – deydi 2-son tergov hibsxonasi boshlig‘i, polkovnik Urazbay Qurbanbayev.

Har qanday sohada xodimlarning oilaviy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy holati bevosita xizmat samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir. Shu boisdan muassasada «xodimbay» ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, bemor xodimlar holidan xabar olinadi. Har bir xodim bilan xizmat intizomi va qonuniylikka rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib boriladi. Ularning oilaviy, ijtimoiy ahvoli o‘rganiladi. Ayniqsa, qaramog‘ida nogironlari bo‘lgan, ikki va undan ortiq voyaga yetmagan farzandlarini yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan, oila a’zolari malakali tibbiy hamda uy-joyga va



moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan xodimlarga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘tgan yili 5 nafar xodimga ipoteka uy olishi uchun boshlang‘ich badal puli to‘lab berildi, 3 nafar xodimning sog‘lig‘ini tiklash uchun sarflagan xarajatlari qoplandi. Hozirda 2 nafar xodimning avtokredit masalasi bo‘yicha murojaati JIED rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

– Joriy yilning aprel oyiga qadar ijtimoiy himoya bilan bog‘liq 30 ta murojaat kelib tushdi. Ushbu hujjatlar «E-ijtimoiy-himoya» portaliga belgilangan tartibda ro‘yxatga qo‘yildi. Hozirgi kunda murojaatlar ko‘rib chiqilmoqda, – deydi 2-son tergov hibsxonasi kasbiy tayyorgarlik guruhi katta inspektori, mayor Aydos Xudaybergenov.

Shu yil yanvar oyida hibsxonaning bir guruh xodimlari va ularning oila a’zolari Nukusdagi teatrda bo‘lib, madaniy hordiq chiqarishdi. Yana bir guruh xodimlar uchun Buxoro va Samarqand shaharlariga sayohat tashkil qilindi.

Hibsxona xodimlarining sportga qiziqishi yuqori ekan. Ularning 5 nafari joriy yilning fevral oyida voleybol bo‘yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasida JIED jamoasi tarkibida ishtirok etib, faxrli 2-o‘rinni egallashgan. Yengil atletika bo‘yicha musobaqalarda safdorlar N.Nuserov, M.Yoqubov hamda U.Dedashev 1-o‘rinni egallagan bo‘lsa, safdor I.Azimjonov 2-o‘rinni, safdor S.Asmetullayev 3-o‘rinni band etgan. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan «Mo‘tabar ayol» ko‘rik-tanlovida esa hibsxona xodimasi, safdor Q. Dosjanova faxrli 2-o‘ringa munosib deb topilgan.

**Azamat PIRNIYAZOV,**
**«На посту» muxbiri.**
*Qoraqalpog‘iston Respublikasi.*





Sayyor qabul

# YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI KO‘MAGIDA

**Navoiy viloyati IIB boshlig‘i tomonidan fuqarolarning muammolarini o‘rganish va bartaraf etish maqsadida Navbahor tumanida sayyor qabul o‘tkazildi. Unda 20 dan ortiq murojaat o‘rganildi. Murojaatlarning aksariyati bandlik, ichki yo‘llarga shag‘al yotqizish, moddiy yordam hamda tibbiy-ijtimoiy ko‘mak masalalarida bo‘ldi.**



Jumladan, «Qalqonota» MFYda istiqomat qiluvchi Oydin Nuraliyeva 6 oylik farzandini qulog‘i eshitmayotganligi uchun bolasiga eshitish qurilmasi olishida va uni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda amaliy yordam so‘rab murojaat qildi. Uning muammosi shu kunning o‘zida viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda hal etildi. «Yosh kuch» MFYda yashovchi Bunyod Xidirov oliy o‘quv yurtida o‘qiyotgan farzandining shartnoma pulini to‘lashda ko‘mak so‘radi. Uning muammosi Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda hal etildi.

Sayyor qabul davomida kelib tushgan shu kabi murojaatlarning 5 tasi joyida ijobiy hal etildi, 4 tasi bo‘yicha huquqiy tushuntirish berildi, 12 nafar fuqaroning murojaatlarini tumanning tegishli mutasaddi rahbarlariga ko‘rib chiqib, ijobiy hal etish yuzasidan muddatlar belgilanib, aniq ko‘rsatmalar berildi.

**Mahliyo XOLOVA,**
**«Postda» muxbiri.**
*Navoiy viloyati.*

# КОНСТИТУЦИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – МОЯ КОНСТИТУЦИЯ

## ВО ИМЯ ДОСТОИНСТВА ЧЕЛОВЕКА

В целях осуществления коренных изменений во всех сферах нашей жизни, создания прочной правовой основы созидательных преобразований 30 апреля в стране прошел референдум по проекту Конституционного Закона «О Конституции Республики Узбекистан».

Конституция – высший нормативно-правовой акт Узбекистана. Исходя из идеи, что «единственным источником и автором Конституции должен быть народ», законопроект был разработан на основе свыше 220 тысяч предложений граждан, трудовых коллективов, экспертов, представителей институтов гражданского общества.

В обновленной Конституции согласно принципу «человек – общество – государство» обеспечение прав и свобод человека закреплено как высшая обязанность государства, увеличены почти в 3,5 раза нормы, касающиеся прав личности.

В Основном Законе находят отражение положения о социальном государстве, нацеленные на укрепление конституционных основ охраны здоровья населения, прав на получение образования. Устанавливаются конституционные гарантии запрета на принудительный труд, дальнейшего развития рыночных механизмов, неприкосновенности частной собственности.

**Под надежной защитой государства права молодежи (14-30 лет), численность которой в Узбекистане около 10 млн человек.**

Закреплено также, что государство несет ответственность за обеспечение защиты прав женщин, стимулирование активного их участия в жизни общества.

В обновленной Конституции предусмотрены нормы, касающиеся экологических прав граждан. В частности, определяется, что государством принимаются меры по улучшению, восстановлению и охране окружающей среды, поддержанию экологического баланса, охране и восстановлению экологической системы региона Приаралья.

Усилена роль СМИ, институтов гражданского общества. Отметим, что за прошедшие 6 лет в республике объем государственной поддержки институтов гражданского общества увеличился в 25 раз, внедрена система бюджетного финансирования деятельности 472 объединений лиц с инвалидностью, 150 национальных культурных центров. Предусмотренные в обновленной Конституции нормы позволят поднять работу в данном направлении на новый уровень.

## СВОБОДНОЕ ВОЛЕИЗЪЯВЛЕНИЕ

Референдум по проекту Конституционного Закона «О Конституции Республики Узбекистан» явился непосредственным выражением воли нашего многонационального народа. Это важнейшее событие в жизни страны прошло на основе всеобщего, равного и прямого волеизъявления граждан.

Участие в референдуме было добровольным и свободным. В нем согласно ст. 6 Закона «О референдуме Республики Узбекистан» приняли участие граждане Узбекистана, достигшие ко дню или в день проведения референдума восемнадцати лет, вне зависимости от происхождения, социального и имущественного положения, расовой и национальной принадлежности, пола, образования, языка, отношения к религии, рода и характера занятий.

Следует отметить, что Центральная избирательная комиссия тщательно подготовилась к референдуму. Были разработаны положения об округах и окружных комиссиях, участках и участковых комиссиях, их задачах. Референдум проходил в 14 округах на территории Республики Каракалпакстан, областей и города Ташкента. Кандидатуры в члены окружных комиссий по проведению референдума были рассмотрены на заседаниях Жокаргы Кенеса Каракалпакстана, областных и Ташкентского городского Кенгашей народных депутатов.

**В составе комиссий были граждане, пользующиеся авторитетом среди населения, в том числе юристы, экономисты, педагоги, врачи, инженеры, журналисты, представители других профессий.**

В ходе референдума функционировала интерактивная услуга по определению и изменению избирательного участка референдума через Единый портал интерактивных государственных услуг.

Граждане, проживающие или находящиеся за пределами территории республики, обладая всей полнотой прав, также имели возможность участвовать в референдуме. Их голосование осуществлялось на участках, организованных при дипломатических и иных представительствах Узбекистана в зарубежных странах.

Следует отметить, что ЦИК было объявлено о возможности досрочного голосования по референдуму 19-26 апреля для граждан, не имевших возможности в день референдума находиться по месту своего жительства.

На мероприятиях по подготовке и проведению референдума присутствовали наблюдатели от политических партий, органов самоуправления граждан, инициативных групп граждан, СМИ. За процессом референдума, включая события до и после него, наблюдали эксперты из других государств и международных организаций. Согласно их мнениям, государственные органы и общественные объединения, участвовавшие в проведении референдума, осуществляли деятельность гласно, с соблюдением законодательства. К примеру, работала миссия по наблюдению за конституционным референдумом в Узбекистане БДИПЧ ОБСЕ. В ходе наблюдения миссия проводила встречи с представителями государственной власти и политических партий, гражданского общества. Она состояла из экспертов основной команды, базирующейся в Ташкенте, и долгосрочных наблюдателей, которые работали по всей стране.



**Конституционный Закон «О Конституции Республики Узбекистан» вступил в силу 1 мая 2023 года.**

## ОСОЗНАННЫЙ ВЫБОР

В общей сложности в Узбекистане в день референдума были открыты более 10,7 тыс. участков для голосования. Для граждан, которые по состоянию здоровья или иным причинам не могли прийти в помещение для голосования, участковые комиссии организовывали голосование по месту их пребывания. Помимо этого, как отмечалось выше, были созданы 55 участков при дипломатических и иных представительствах Узбекистана в 39 иностранных государствах. Граждане отвечали на один вопрос в бюллетене: «Принимаете ли вы Конституционный Закон Республики Узбекистан «О Конституции Республики Узбекистан?»

1 мая ЦИК объявила результаты референдума.

Явка на референдуме составила 84,51%. Всего проголосовало



16 667 097 из 19 722 809 зарегистрированных избирателей. Из них досрочно проголосовали 611 320. За обновление Конституции проголосовали 90,21% граждан, принявших участие в голосовании, или 15 034 608 человек.

Решения, принятые референдумом, обладают высшей юридической силой. Референдум по проекту Конституционного Закона позволил гражданам страны осуществить свободное волеизъявление, сделать осознанный выбор.

**Радик ТУМПАРОВ,**
**корреспондент «На посту».**

*Ўқишни тавсия этаман*

# ҚАЛБ ИЗТИРОБИДАН ЯРАЛГАН ҚИССА

**Хотира ва қадрлаш куни яқинлашгани сари инсоният бошига беҳисоб кулфатлар солган Иккинчи жаҳон уруши ёдимизга тушаверади. Ўша суронли кунларда кўплаб ўзбек ижодкорлари жангга отланганди. Улар орасида халқимизнинг ардоқли фарзанди Шароф Рашидов ҳам бор эди.**



У бир қўлида қалам, бир қўлида қурол билан фашизмга қарши курашди. Адиб уруш даҳшатларини, тинч аҳолининг чеккан азоб-уқубатларини ўз кўзи билан кўрди. Айниқса, болаларнинг аянчли тақдири унинг қалбини чуқур изтиробга солди. Фронтдан яраланиб қайтгач, 1945 йилда «Қаҳрим» китобини нашр эттирди. Тўпламда муаллифнинг айнан Иккинчи жаҳон уруши йилларида ёзган шеърлари жамланган эди. Китоб бежиз бундай номланмаган. Зеро, ундан ўрин олган шеърларда шоирнинг биринчи галда урушга нафрати, қолаверса, инсонпарварлик, ватанпарварлик туйғулари ўз ифодасини топган.

Шароф Рашидов урушдан кейинги йилларда турли масъул лавозимларда ишлади. Бу даврда яратилган «Ғолиблар», «Бўрондан кучли», «Қудратли тўлқин» каби йирик насрий асарларида адиб ўзи яшаган замонда республикамиз ҳаётида юз берган муҳим воқеалар, халқимизнинг яратувчилик меҳнатини бадиий бўёқларда тасвирлайди.

**Кейинчалик унинг жангда олган тан жароҳати битиб кетади, албатта. Лекин қалб жароҳати битмайди. Шунинг учун бўлса керак, умрининг охирларида, аниқроғи 1977–1982 йилларда «Дил амри» қиссасини ёзади. Шу маънода қиссани қалб изтиробидан яралган асар, десак, тўғри бўлади. Аслида ҳам чинакам санъат намуналари айнан чуқур изтироб, дард, чексиз қувонч, яъни қалб туғёнлари мевасидир.**




Асар воқеалари Беларусь Республикасининг Берёзовка қишлоғида кечади. Унда қишлоқ аҳолисининг уруш туфайли чеккан машаққатлари ҳаққоний тасвирланади. Китобни мутолаа қилсангиз, катталар қатори партизанлар сафида туриб фашистларга қарши курашган ўсмирларнинг жасорати билан танишасиз. Шунингдек, Беларусь Республикаси заминида босқинчиларга қарши мардонавор жанг қилган ўзбек аскарларининг образлари ҳам хотирангизда бир умрга муҳрланиб қолади.

Биз ҳам мураккаб даврда яшаяпмиз. Она сайёрамизнинг гоҳ у, гоҳ бу бурчагида қуролли тўқнашувлар, турли зиддиятлар юз бериб турибди. Ана шундай нотинч замонда урушни қораловчи, тинчликнинг қадрига етишга даъват этувчи «Дил амри» қиссаси жуда катта ижтимоий, тарбиявий аҳамиятга эга деб ҳисоблайман.

**Бобомурод ТОШЕВ**
**тайёрлади.**

*«Маънолар махзани»дан*

**ЕЛДАЙ КЕЛИБ, СЕЛДАЙ ОЛСИН**

Душманни, ёмон кўрган одамни дуойибад қилиб қарғаганда, шундай дейдилар. Бундан ташқари, узоқ вақт оғир касал бўлиб, қийналиб ётган, на ўлиб ўлмайдиган, на қолиб қолмайдиган одамнинг аянчли ҳолини кўрган киши ўз-ўзига ё бировга: «Бунақа қийналиб ётгандан кўра, менга шундай ўлим бўлсаки, ажал елдай келиб, селдай олса», дейди.

**ЕЙИШИНГ— КЕПАК, КИЙИШИНГ — ИПАК**

Вариант: «Ейишинг — шолғом-у, ётишинг Марғилоннинг сирли саройи». Бу мақолларни ейиш-ичишни чеклаб бўлса ҳамки, бор пулини яхши-яхши кийинишга сарфлайдиган ёхуд уйида ҳеч балоси бўлмаса ҳам, кийимига зеб бериб, одамларга ўзини кўз-кўз қилиб юрадиган олифта, сатангларга нисбатан киноя тарзида қўллайдилар.

**ЕМА, ИЧМА, БЎЛ БАХИЛ, БОЙ БЎЛМАСАНГ, МЕН КАФИЛ**

Халқ бу мақолни бахил бойларга нисбатан қаттиқ киноя тарзида қўллаган. «Бой бўлай десанг, ўчоғингнинг кулини торт» деган мақол ҳам борки, халқ буни зиқна, хасис бойлар тилидан ёхуд уларга қарата киноя тарзида айтган. Мазмуни: «Бой бўлай десанг, ҳадеб овқат қилиб еявермa ва ҳадеб меҳмон чақириб, уларга зиёфат беравермa», дейилмоқчи.

*ИИВ академик лицейларида*

# ТИЛ БИЛГАН ЭЛ БИЛАДИ

**Баркамол авлод юрт келажагидир. Ёшларни Ватанга муҳаббат, халққа садоқат руҳида тарбиялаш, уларга жаҳон андозалари асосида билим бериш долзарб вазифа ҳисобланади.**



ИИВ Самарқанд академик лицейида таълим сифатини ошириш мақсадида апрель ойида «Хорижий тиллар ойлиги» ўтказилди. Ойлик доирасида турли мавзуларда конференциялар, семинарлар, маърузалар, кўргазмалар, танловлар ва бошқа тадбирлар ташкил этилди. Жумладан, деворий газеталар ва иншолар танлови уюштирилди.

Лицей ўқувчилари ўлкашунослик музейига, «Буюк ипак йўли» институтига, кутубхоналарга, маданий марказларга, илмий муассасаларга саёҳат қилишди. Хорижий тиллар ўқитувчилари томонидан ўтказилган маҳорат дарслари ҳам уларда чуқур таассурот қолдирди.

Энг муҳими, «Хорижий тиллар ойлиги» ўқув-тарбия жараёнини давр талаблари билан уйғунлаштиришга хизмат қилди. Қолаверса, ойлик замонавий педагогик технологиялар ва услубларни жорий этишда, ўқитувчиларнинг касб маҳоратини оширишда муҳим омил бўлди.

**Юлдуз НАРЗУЛЛАЕВА,**
**ИИВ Самарқанд академик лицейи ўқитувчиси.**

*Ma'naviyat va ma'rifat darsi*

# YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI – MENING KONSTITUTSIYAM

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning irodasini, istak-xohishi, intilishini, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. U biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki g'urur-iftixor manbayi, taraqqiyotning huquqiy asosi hamdir.**

**«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni 1-may kunidan e'tiboran kuchga kirdi. An'anaga ko'ra, 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni sifatida nishonlanadi.**

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ko'plab sohalarda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Va, hech shubhasiz, hayotimiz qomusi – Konstitutsiyamiz barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi. Biroq, ayonki, davlat, jamiyat va fuqarolarning turmush tarzi o'zgarib borishi asnosida, Konstitutsiya ham shunga mutanosib tarzda o'zgarib, mukammallashib boradi. Bu ro'y berishi lozim bo'lgan tarixiy zaruriyat sanaladi.



O'zbekiston keyingi davrda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keng ko'lamli islohotlar olib borilyapti. Mazkur islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'laqonli erishish esa Asosiy qonunimizni yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi. Shunga muvofiq, mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyoti, xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos va ishonchli kafolat yaratish nuqtai nazaridan Konstitutsiyaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifi ilgari surildi. Turli soha vakillaridan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, ish boshladi. Mazkur komissiya dastlab Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha takliflarni qabul qilish, jamlash va tahlil qilish ishlarini olib bordi. Shundan keyin ushbu takliflar asosida ishlab chiqilgan qonun loyihasi parlamentning Qonunchilik palatasiga taqdim etildi.

Alohida ta'kidlash kerakki, Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda xalqimizning fikri, takliflari ikki bosqichda o'rganildi. Birinchi bosqichda fuqarolardan Konstitutsiya loyihasini shakllantirishga qaratilgan 60 mingdan ziyod taklif olindi. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

Aholi ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali loyiha bilan tanishdi, 150 mingdan ziyod taklif va mulohazalar bildirildi. Xuddi shuningdek, xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi. Buning natijasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya 65 foizga o'zgartirildi.




Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: «Konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo'llab-quvvatlash asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma'noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'ladi. Shunda har bir vatandoshimiz «Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – mening Konstitutsiyam» deb yuksak g'urur bilan ayta oladi», deb ta'kidladi.

**Referendum jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Uning saylovdan asosiy farqi shundaki, referendumda biror lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro'yxati uchun ovoz berilmaydi, balki muayyan masala – qonun, qonun loyihasi, Konstitutsiya, Konstitutsiyaga tuzatish kiritishga oid savol qo'yiladi.**

Referendumda qabul qilingan qaror oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Joriy yilning 30-aprel, yakshanba kuni yurtimizda O'zbekiston Respublikasi referendumi bo'lib o'tdi. Referendum byulletenida: «Siz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini qabul qilasizmi?» degan savol berildi. Siyosiy tadbirda ishtirok etgan har bir fuqaro, har bir hamyurtimiz o'z qarorini erkin ifoda qildi.

Markaziy saylov komissiyasi xabariga ko'ra, referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonlarini 383 nafar xalqaro kuzatuvchi bevosita kuzatib bordi. Jumladan, 14 ta nufuzli xalqaro tashkilotdan, xususan, YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Turkiy tilli davlatlar tashkiloti, Turkiy kengash Parlament Assambleyasi hamda Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa qator xalqaro tuzilmalardan 184 nafar, 45 ta xorijiy davlatdan 199 nafar xalqaro kuzatuvchi ushbu jarayonda ishtirok etdi. Ayni chog'da referendumni ommaviy axborot vositalarining jami 964 nafar vakili, jumladan, 127 ta xorijiy ommaviy axborot vositasidan 192 nafar vakil bevosita yoritib bordi.

1-may kuni Markaziy saylov komissiyasining «2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 19 million 722 ming 809 nafar fuqaroning yarmidan ko'pi, ya'ni 84,51 foizi referendumda ishtirok etganiga asoslanib, referendum amaldagi qonunchilikka muvofiq haqiqiy va bo'lib o'tgan, deb topildi. Referendumga qo'yilgan masalani yoqlab berilgan ovozlar soni 15 million 34 ming 608 ta (ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 90,21 foizi) ni, referendumga qo'yilgan masalaga qarshi berilgan ovozlar soni 1 million 558 ming 817 ta (ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 9,35 foizi)ni tashkil etdi. Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan, deb hisoblandi.

Xulosa qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimiz uchun adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir. Xususan, yangi Konstitutsiyaning 20-moddasi beshinchi qismida «Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi» deb belgilangan. Bu qoidaning Bosh qomusimizga kiritilishi mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamma narsadan ustun ekanligini yaqqol tasdiqlaydi. Zotan, Prezidentimiz aytganidek, «Insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishi kerak».

**Kamol OLLOYOROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*День памяти и почестей*

# ВЕРНОСТЬ ДОЛГУ И ПРИЗВАНИЮ

***В небесах отгорели зарницы,***
***И в сердцах утихает гроза.***
***Не забыть нам любимые лица,***
***Не забыть нам родные глаза...***

*Из песни «Как молоды мы были».*

Время... Оно словно безмолвный свидетель отсчитывает каждый наш шаг, каждый поступок, оценивая пройденный путь строго и беспристрастно. И те, кого уже нет с нами, будут жить в наших сердцах, пока память о них словно свеча на ветру освещает путь...

В Медицинском управлении МВД Узбекистана и его подразделениях в разные годы трудились талантливые специалисты, внесшие немалый вклад в становление и развитие службы, специфика деятельности которой стоять на страже здоровья действующих сотрудников органов внутренних дел, членов их семей и ветеранов сферы. Многие из этих профессионалов, посвятивших жизнь любимому делу, прошли огненными дорогами Второй мировой войны, бесстрашно боролись с врагом, всеми силами приближали день долгожданной Победы. Но и в мирное время поколения людей в белых халатах продолжили свой славный путь, заботясь о здоровье тех, кто противостоял преступности, оберегая покой в домах соотечественников.

В преддверии Дня памяти и почестей, всенародно отмечаемого в нашей стране, вспомним тех, кто никогда не забывал о своем долге и предназначении. Ветераны Второй мировой войны – Расул Иноятов, Нина Смирнова, Михаил Мухамеджанов, Халида Байтерекова, Галина Березина, Александр Герасимов, Александр Мартиросов, Евгения Каменева, Армена Микиртычева, участник трудового фронта Рауф Холматов и другие талантливые специалисты, отличаясь мастерством и умением, делали все от них зависящее, чтобы блюстители правоохраны как можно скорее возвращались в строй.

Верность долгу и Родине во все времена отличали истинных патриотов, беззаветным трудом и профессионализмом заслуживших всеобщие почет и уважение. К сожалению, сегодня с нами нет никого из медицинских специалистов, воевавших на фронтах Второй мировой войны, но память... Она вечна, пока живет в наших сердцах.

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**





# ПОШЛИ ПО СТОПАМ ОТЦА

**Для детей правоохранителей будущая профессия зачастую бывает предопределена, поскольку они с ранних лет впитывают, так сказать, атмосферу службы родителей.**



**Азимжон МАНИЯЗОВ**

Азимжон Маниязов родился в 1927 году в Шахриханском районе. Окончив школу, Азимжон работал наборщиком в типографии. Когда началась Вторая мировая война, три его старших брата были призваны в армию и отправились на передовую. Никто из них не вернулся домой, они погибли на полях сражений...

Азимжон Маниязов окончил Алматинскую среднюю специальную школу милиции, а затем без отрыва от службы юридический факультет ТашГУ (ныне – Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека). Был оперуполномоченным уголовного розыска, следователем, заместителем начальника Ходжаабадского РОВД. В 1967 году его назначили начальником ОВД Бозского района (ныне – Бустонский район). Здесь подполковник А. Маниязов прослужил до 1980 года.

По стопам отца пошли три его сына – Ахмаджон, Адхамжон и Улугбек. Они всего добивались сами, строго следуя наставлениям главы семейства.

Адхамжон и Улугбек дослужились до звания подполковника, Ахмаджон – до звания полковника, вышел на заслуженный отдых с должности заместителя начальника Управления уголовного розыска УВД Андижанской области. В настоящее время Ахмаджон Маниязов работает преподавателем в Андижанском академическом лицее МВД.

– «Сотрудник органов внутренних дел должен быть честным, порядочным человеком, хорошим специалистом». Так повторял отец, – вспоминает полковник в отставке Ахмаджон Маниязов. – Для того чтобы качественно выполнять работу, ее нужно любить. В службе всегда бывают трудные моменты, но нужно идти вперед, несмотря ни на что.

Когда настало время выбирать профессию, у меня не было ни малейшего сомнения. Передо мной был прекрасный пример для подражания: отец и брат. После окончания юридического факультета ТашГУ, заочно окончил Высшую школу МВД.

Семья – это главная поддержка в жизни любого человека, а тем более сотрудника ОВД. Наша мама всегда поддерживала отца, она была очень внимательна, добра, терпелива. Отца уже давно нет с нами, несколько лет назад ушел из жизни старший брат – Адхамжон. Но мы их помним, они всегда в наших сердцах.



**Адхамжон МАНИЯЗОВ**

**Нилуфар МУМИНОВА,**
**подполковник.**
**Фото из музея**
**УВД Андижанской**
**области.**

*Журналист рейдга чиқди*

# МИНГ БОР ЭШИТГАНДАН КЎРА...

**Сирдарёнинг маркази Гулистон шаҳрининг осойишталиги учун кўплаб ходимлар доим сергак ва ҳушёр хизмат олиб боришади. Шаҳардаги тартиб-осойишталикни сақлаш вазифаси юклатилган вилоят ИИБ ЖХХ ППХ ходимлари билан Гулистоннинг анча ичкари, эски деҳқон бозорининг бироз ташландиқ кўчасини кезарканмиз, бозорга туташ кўчадаги бир дўнгалакка ўтирганча гоҳ ҳиргойи қилаётган, гоҳ алламбало қилиқлари билан одамларни ўзига жалб этаётган, кўринишидан сархуш кексага дуч келдик. Отахоннинг мастона ҳаракатларига чек қўйган йигитлардан у ҳақда сўрадик.**



— Отахон сурункали ичкиликбозликка чалинган, – дейди вилоят ИИБ ЖТСБ ППХ сафдор ходими, сафдор Отабек Қурбонбоев. — У ёлғиз яшайди. Маст бўлган пайтида ўтган-кетганга гапириб, эътиборни тортади. Бир неча бор чора кўрилганига қарамай, носоғлом турмуш тарзини давом эттиряпти.

Ички ишлар органлари ходимлари билан замонавий меъморий ечимга эга бинолардан бирининг биринчи қаватига кирамиз. Бу ер компьютер ўйинлари, киберспорт маркази экан. Етти-саккиз йигит машғулот билан банд. «Suvon&Akmal» интернет кафеси беш йилдан бери фаолият кўрсатар экан. Бизни қаршилаган йигит болаларнинг ўйин учун дарсдан қочишига қаршилигини айтиб, ходимларни хотиржам қилди. Айниқса, тунги 22:00 дан кейин болаларнинг бу ерда ўтириши мумкинмаслигини тушунишини қайд этди.

Шу пайт рация орқали ҳудуддаги автобекатда ўзаро жанжал бўлаётгани тўғрисида хабар келиб тушди. Замонавий хизмат автомобили йўналишдан қайрилиб, тезликни оширди. Орадан уч дақиқа ўтар-ўтмас темирйўл вокзали яқинидаги шоҳбекатга етиб бордик. Етти-саккиз одам ўзаро тортишаётган экан. Инспекторлар ишга киришди. Вазиятга аниқлик киритилди. Маълум бўлишича, киракашлар мижоз талашиб, ўзаро тортишиб қолган. Ходимлар уларнинг шахсини аниқлашга киришишди. Вазият ўз ўзанига туша бошлади. Йиғилганлар тарқаб, уларнинг икки нафаригина қолди. Улар бир-бирилан кечирим сўрашгач, ҳаммаси жойига тушди.





Вилоят ҳокимлигига туташ майдонда ранго-ранг йўл белгилари, пиёдалар зебралари, светофорлар ўрнатилган. Сочларига бантик тақиб олган қизалоқлар, костюм-шимлари ўзига ярашган болакайларга Гулистон шаҳар ИИБ ЖХХ ЙҲХБ бошлиғи, подполковник Шерзод Эрназаров бошчилик қилаётир. Маълум бўлишича, шаҳар ИИБ ЙҲХБ бошлиғи ёш авлодга йўл қоидаларини тушунтираётган экан.

Шаҳарга кеч тушди. Шаҳар кўчаларида ранг-баранг чироқлар порлади. Нарироқдаги амфитеатрда эса шўх куй-қўшиқлар овози эшитила бошлади. Тартиб посбонлари орасида кулиб турган қиз менинг ички ишлар тизимига алоқам борлигини, журналистлигимни билиб салом беради:

— Катта сержант Камила Реимбаева. Марҳамат кираверинг.

Ичкарида ҳам ички ишлар органлари ходимлари хизматда. Уларнинг нигоҳи томошабинлар орасида тартиб бузишга уриниш ҳолатларига йўл қўймаслик мақсадида сергак боқади. Шундай фидойи ходимларнинг заҳмати эвазига хотиржам дилтортар қўшиқлар оҳанги дунёсига сингиб кетаман.

**Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Сирдарё вилояти.*

*Hafta qahramonlari*

# POYTAXTNING HUSHYOR XODIMLARI
## ona-bola hayotini saqlab qolishdi

*(Davomi. Boshlanishi 1-betda).*



Joriy yilning 25-aprel kuni taxminan tungi soat 22:20 larda Yunusobod tumani IIOFMB JTSB va PPX otryadi xodimlari, safdorlar Elnur Kalikulov va Temur Mansurovlar «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida xizmat vazifasini bajarib yurishgan edi. Shu payt ular mazkur hududdan oqib o‘tuvchi «Bo‘zsuv» kanaliga bir ayol yosh bolasi bilan sakraganligini ko‘rib qolishadi. Safdor E. Kalikulov o‘ylab o‘tirmasdan, o‘zini suvga otadi va avval bolani safdor T.Mansurovga uzatadi. Keyin esa ayol ham suvdan olib chiqiladi.

Ona-bola 7-sonli shahar klinik shifoxonasiga olib boriladi va ularga tez tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Shu tariqa, ikki insonning hayoti saqlab qolindi. Hozirda ona-bolaning salomatligi qoniqarli holatda.

Qahramonlarimizdan biri, safdor E. Kalikulov ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2009-yilda boshlagan. Egallab turgan lavozimida 2022-yildan buyon xizmat qilib keladi.

Safdor T. Mansurov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2016-yilda boshlagan. Egallab turgan lavozimida 2021-yildan buyon xizmat qiladi.

Mazkur holat, ya’ni M.J. nima sababdan farzandi bilan kanalga sakraganligi atroflicha o‘rganildi. Ma’lum bo‘lishicha, turmush o‘rtog‘i Q.Sh. bilan doimiy ravishda oilaviy nizo bo‘lib turganligi sababli, ayol ruhiy tushkunlikni boshidan kechirgan va «Shahidlar maydoni»da aylanib yurganida, o‘zini boshqara olmay, «Bo‘zsuv» kanaliga sakragan.

Agar hushyor va ziyrak fidoyi xodimlar suvga sakrayotgan ayolni o‘z vaqtida ko‘rib qolishmaganida, kim biladi, ona-bolaning taqdiri qanday yakun topardi?

**Sarvar SOBIROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Соҳа маликалари*

# КАСБИГА САДОҚАТЛИ АЁЛ

**Фидойилиги, касбига садоқати билан ҳамкасбларининг иззат-ҳурматига сазовор бўлаётган сержант Нигора Нурметова, мана, 22 йилдирки, Хоразм вилояти ички ишлар органларида хизмат қилиб келмоқда.**



Урганч шаҳридаги бухгалтерлар тайёрлаш мактабини тамомлаган Нигора вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бўлими томонидан эркин ёлланган ишчи-хизматчи лавозимига танлов асосида ишга қабул қилинди. Энди у юрт тинчлиги, аҳоли хавфсизлигини таъминлаш, қўриққа олинган масканларни ишончли ва кафолатли ҳимоя қилиш нақадар машаққатли ҳамда масъулиятли вазифа эканлигини ўз кўзи билан кўрди, дилдан ҳис қилди.

Интилганга толе ёр, деб бежиз айтишмаган. Билим олишга бўлган иштиёқ ўз самарасини берди. Синовлардан муваффақиятли ўтган Нигора Нурметова ўзи хизмат қилаётган Қўриқлаш бошқармасида шаҳодатланган ҳисобчи лавозимида 8 йил давомида устози – сержант Зулфия Абдукаримовадан касб сирларини янада чуқурроқ ўрганишга ҳаракат қилди. Хизматга оид қўлланмаларни, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни кунт билан ўқиб-ўрганди. Шундан сўнг у Хонқа тумани ИИБ ҳузуридаги қўриқлаш бўлими, вилоят ИИБ ЖҚ ва ТҚКБ ҳамда вилоят ИИБ ЖҚБда самарали хизмат қилди. Айни кунда сержант Нигора Нурметова вилоят ИИБ Тезкор-қидирув хизмати ташкилий-мувофиқлаштириш бўлимининг канцелярия бошлиғи лавозимида хизмат фаолиятини давом эттирмоқда.

– Нигора Нурметова тажрибали ходималаримиздан бири, – дейди вилоят ИИБ ММИ ва КБТХ бошлиғининг ўринбосари, подполковник Дилноза Боғибекова. – У ўзининг узоқ йиллик хизмат фаолияти давомида кўплаб муҳим тадбирларда фаол иштирок этди ва самарали натижаларга эришди. Тажрибали мураббий сифатида ўттиздан ортиқ ёш ходимларга устозлик қилди.

Комил фарзандлар ота-она касбининг давомчилари бўлади. Лавҳамиз қаҳрамонининг тўнғич фарзанди Эркинбой Худайбергенов ҳам онаси изидан бориб, ички ишлар органларида хизмат қилишга аҳд қилди. Айни кунда лейтенант унвонига эга бўлган бу йигит ИИВ Академияси кадрлар бўлимида хизмат қилмоқда. Қизи Мардона Худайбергенова эса вилоят ИИБ Тиббиёт бўлимида ҳамшира.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Хоразм вилояти.*

*Хизматларда*

# СЕРГАК ҲИМОЯЧИЛАР КЎМАГИДА

**Бугунги кунда ИИВ Жамоат хавфсизлиги департаменти Жамоат тартибини сақлаш хизмати Кинология бўлими ва унинг қуйи тизимлари томонидан жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек, жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш мақсадида бир қатор ташкилий ва амалий чора-тадбирлар кўрилмоқда.**



Бу, албатта, ўз самарасини бермай қолмаяпти. Масалан, жорий йилнинг дастлабки уч ойи давомида хизмат итлари иштирокида 917 та турли кўринишдаги жиноят фош этилди. Шундан 585 таси ўғрилик жиноятларидир. Қолаверса, гиёҳвандлик билан боғлиқ 232 та ҳолатда жиноятчилардан 15 килограммдан зиёд гиёҳвандлик моддалари олиб қўйилди.

Ҳозирги кунда кинология бўлинмаларида 842 та ҳар хил наслдаги хизмат ити мавжуд. Ушбу хизмат итларининг 697 таси антитеррор, из-қидирув, қўриқлаш, шунингдек, портловчи ва гиёҳвандлик моддаларини топиш каби махсус йўналишлар бўйича тайёрланган бўлиб, улардан жамоат хавфсизлигини таъминлашда самарали фойдаланиб келинмоқда.





Таъкидлаш жоизки, яқин кунларда Тошкент вилоятининг Нурафшон шаҳри ҳудудида барпо этилган замонавий наслчилик питомниги фойдаланишга топширилади. 2 гектар жойни эгаллаган мазкур мажмуа маъмурий бино, ветеринар, туғуруқ ва карантин блоклари, махсус ошхона, омборхоналар, наслдор итлар учун вольер ва машқ майдонларини ўз ичига олган. Келгусида питомникда ички ишлар органлари учун хизмат сифати юқори бўлган йилига ўртача 100 та кучук боласи кўпайтирилиши ҳамда уларда бошланғич кўникмалар шакллантирилиб, республика ички ишлар органларига тарқатилиши режалаштирилган.



**Ўз мухбиримиз.**

# ЭТО ЕЕ РАБОТА

**О молодом специалисте – старшем инспекторе по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Шуманайского района лейтенанте Инобат Базарбаевой коллеги отзываются как о целеустремленной, перспективной сотруднице.**



При ее непосредственном участии 45 женщинам района, пострадавшим от притеснения и насилия, выданы охранные ордера. Работа, осуществленная во взаимодействии с активом махаллей, позволила примирить 42 семьи. К сожалению, устранить разногласия в трех семьях не удалось.

...Гражданин К. А., 1986 года рождения, систематически оказывал психологическое давление на жену – Р. У. В один из дней женщина, не выдержав такого отношения, решила уйти из дома... Узнав о конфликте, лейтенант И. Базарбаева и инспектор профилактики провели беседы с супругами. Инспектор по вопросам женщин предложила выдать Р. У. охранный ордер, однако та отказалась: «Если получу ордер, муж будет в гневе...» Лейтенант И. Базарбаева понимала: если ситуацию не поправить, женщина впоследствии может стать жертвой более тяжкого деяния. Она пояснила запуганной Р. У., что государство стоит на ее защите. Женщине была оказана психологическая помощь, с ее супругом велась разъяснительная работа, в том числе о правовых последствиях антисоциального поведения. Усилия не прошли даром. Через некоторое время конфликт был урегулирован.

– В процессе профессиональной деятельности сталкиваемся с различными проблемами женщин. Нередко они возникают от незнания прав, боязни выглядеть виноватой в глазах родных, окружающих, – делится лейтенант И. Базарбаева. – Признаюсь, есть люди, заявляющие: «Ты еще юная. Чему можешь нас научить?» В такие моменты пытаюсь объяснить, что сами по себе прожитые годы не всегда делают человека рассудительнее. Как говорится, «ум не в летах...». Всегда могу положиться на поддержку наставников – подполковника Хурзаду Реймкулову, майора Бийбиназ Нуриллаеву, капитана Саламат Генжебаеву.

– Лейтенант Инобат Базарбаева – выпускница Академии МВД Узбекистана. В годы обучения являлась обладательницей стипендии министра внутренних дел, окончила высшее образовательное учреждение с дипломом отличия, что еще раз подтверждает ее высокую профессиональную подготовленность, – говорит начальник ОПП СОБ РОВД майор Азамат Утепов. – Вместе с коллегами она регулярно участвует в рейдах, осуществляемых в целях предупреждения преступлений и правонарушений. Так, в ходе ночных рейдов были выявлены 12 женщин, ставившие цель совершать преступления против общественной нравственности. Кроме того, пять граждан, не имеющих определенного места жительства, по решению суда помещены в реабилитационные центры, им оказано содействие в восстановлении документов, подтверждающих личность. В этом году количество преступлений, совершенных женщинами, сократилось с 3 до 1. Профилактические мероприятия дают результаты.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**корреспондент**
**«На посту».**
*Республика Каракалпакстан.*

■ Сырдарьинская область

# СОРЕВНОВАНИЯ ПО ВОЛЕЙБОЛУ



В Сырдарьинской области начались соревнования по волейболу на кубок начальника УВД. Ожидается, что в состязаниях, проводимых в рамках месячника духовности, примут участие более пяти тысяч представителей молодежи. Соревнования проходят в два тура. Первый этап проводится в районах и городах. Команды-победительницы получат право участвовать на областном этапе.

**Соб. корр.**



## ИСТОРИЯ И ФАКТЫ



**Не менее 800 тысяч женщин-воинов сражались на фронтах. Около 150 тысяч из них были награждены орденами и медалями, более 90 – удостоены звания Героя.**

Пири бадавлатлар

# ОСОЙИШТАЛИК ПОСБОНЛАРИНИНГ 101 ЁШЛИ МОМОСИ

**Олтиариқ тумани «Хўжақўрғон» маҳалласида яшовчи Момохон Шарипова бу йил 101 ёшни қарши олди. Болалиги оғир ва машаққатли ўтган, Иккинчи жаҳон уруши йилларида-ги қийинчиликларни ўз кўзи билан кўрган, бевосита бошидан кечирган, катта Фарғона каналини қазишда иштирок этган момо билан суҳбатлашган инсоннинг баҳри дили очилади.**

Кўзлари тийран, хотираси тиниқ, ҳатто синфдошларининг, дугоналарининг исмини ҳам унутмаган нуронийнинг файзли хонадонидан меҳмонларнинг қадами узилмайди.

Яқинда унинг 22-чи набираси, Фарғона вилояти ИИБ Ахборот хизмати раҳбари, катта лейтенант Исмоилжон Шарипов бир даста гул кўтариб, момони яна йўқлаб борди.

– Исмоилжонмисан? Бошинг тошдан бўлсин, болам, – дейди онахон суюкли набирасини эшикдан кириши биланоқ таниб.

Набира эса болаликдан опичлаб катта қилган момосини меҳр билан бағрига босди.

– Шу набирамни жуда яхши кўраман, – дейди момо. – Гўдаклигидан ўзим катта қилганман. Мана, алпқомат йигит бўлиб, форма кийди. Элга хизмат қиляпти. Илоҳим, ишларига ривож берсин, юртимиз тинч бўлсин.

– Эсимни танибманки, бувимнинг тарбияси билан камолга етдим, – дейди катта лейтенант Исмоилжон Шарипов. – Бувамдан эрта айрилган бувим ойдин тунларда бизга ўзининг оғир ўтган болалигини, уруш йилларидаги очарчилик, қийин ва машаққатли кунларни, Катта Фарғона каналини қазиш жараёнларини гапириб берарди. Шу тариқа, бизни илм олишга, ҳунар ўрганишга, ҳалол меҳнат қилишга, тинчликнинг қадрига етишга чақирарди. Ҳозир бувимнинг 9 нафар фарзандидан 41 набира, 135 эвара, 22 чевараси бор. Улардан 5 нафари осойишталик посбонларидир.

Онахон ўзининг болалик йилларини ҳам тиниқ хотирлайди. Фарғона туманидаги Чимён қишлоғида туғилиб ўсганини, отаси Аҳмадхўжа Зайлиддинов, онаси Давлатпошшо Қорабоевалар оддий колхоз ишчиси бўлганини таъкидлайди.

Момохон Шарипова тирикчилик ташвишида қиз бола боши билан оғир дала юмушларини бажаради.



1939 йилда отасига эргашиб, Катта Фарғона канали қазилаётган жойга боради. Ўша ерда катталарга кўмаклашади.

– Уруш йилларида далада фақат чолу кампирлар, ёш болалар ва бизга ўхшаган келинлар меҳнат қиларди, – дейди онахон ўша даврларни ёдга олиб. – Бешигимизни кўтариб, қайси далага юборса, ўша ерга бориб, кетмон чопганмиз, ўроқ ўрганмиз. Вақти келса, ишчи кучи етишмаганидан аёллар отарава миниб, поезд вокзалига буғдой, пахта ташиганмиз.

Иккинчи жаҳон уруши тугаган кунни момо асло ёдидан чиқармайди. Ҳалигача набираларига ҳаяжон билан гапириб беради.

– Ўша куни далада иш қилаётган эдик, – дейди у. – Қўлимизда кетмон, уватдаги тутга беланчагимизни осиб, болаларимизни ётқизиб қўйганмиз. Шерикларимиздан бири узоқдан қичқириб югуриб кела бошлади. Қизжувонлар ердан бошимизни кўтариб, тинчликмикан, деб унга қарадик. Шеригимиз қўлидаги рўмолини боши узра ўйнатиб, бор овози билан бақирарди. Яқинлашгач, овози қулоғимизга кирди. «Суюнчи беринглар, уруш тугабди». Бу гапни эшитиб, ҳамма аёллар далада тик турганча қотиб қолди. Кимнингдир кўзидан дувиллаб ёш оқди, кимдир кетмонни зарда билан нарига улоқтирди, кимдир қувонганидан ёнидаги шеригини бағрига босиб йиғлади.

Момохон Шарипова турмуш ўртоғи Мирзақобил Машарипов билан ҳамжиҳатликда 9 нафар фарзандни вояга етказдилар, уйли-жойли қилишди. Айни пайтда фарзанд ва набиралари, эвара-чевaралари қуршовида кексалик гаштини сурмоқда.

Маҳалла фаоллари, қишлоқ оилавий поликлиникаси шифокор ва ҳамширалари уни тез-тез йўқлаб келадилар. Набиралар эса дуогўй момонинг хизматига камарбаста. Шу боис онахон бугунги дориламон кунларга мудом шукрона айтиб яшайди.

Ҳар гал қўлини дуога очганида дунёда уруш бўлмаслигини ният қилади.

**Абдувосит СИДИҚОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Фарғона вилояти.*

Тарих тилга кирганда

# УЛАР УЧУН ЖАНГ ТУГАМАГАН ЭДИ

**Иккинчи жаҳон уруши ўзининг мисли кўрилмаган оғир кулфатлари билан тарихда қолди. Беш йил давомида миллионлаб юртдошларимиз фронтга сафарбар этилди. Улар орасида жангларда мардонавор қатнашган ва ундан кейин ички ишлар органлари сафида раҳбарлик лавозимларида фидойиларча хизмат қилган ходимлар ҳам бор эди.**



**Сирожиддинов Бурҳон Ҳасанович, 1917 йилда туғилган.**

Иккинчи жаҳон урушининг бошидан охирига қадар взвод, рота, сўнгра дивизион командири, бригада штаби бошлиғи ўринбосари сифатида Москва остоналарида, Белоруссия, Польша, Шарқий Пруссиядаги жангларда қатнашган.

Иккита II даражали «Улуғ Ватан уруши», III даражали «Ватанга хизмати учун» орденлари, ўндан ортиқ жанговар медаллар билан тақдирланган.

Урушдан сўнг ички ишлар органларида масъул лавозимларда, хусусан, ИИВ Ички қўшинлари қўмондони, 1980–1985 йилларда Тошкент шаҳрида жойлашган собиқ ИИВ Олий курсларининг бошлиғи лавозимларида хизмат қилган. Генерал-лейтенант унвони билан пенсияга чиққан.



**Имамов Зуннун Имамович, 1917 йилда туғилган.** 1939 йилда Волск ҳарбий авиация билим юртини тамомлаган. Полтава олий офицерлар мактабида катта авиамеханик лавозимида хизмат қилган. Иккинчи жаҳон урушида ҳаракатдаги армия сафида кўплаб жангларда қатнашиб, қаҳрамонликлар кўрсатган. Фронтда олган жароҳатидан сўнг ватанига қайтиб, 1952 йилда Тошкент юридик институтини тамомлаган.

1960–68 йилларда Хоразм вилояти, 1968–1972 йилларда Тошкент шаҳар ички ишлар бошқармаларига раҳбарлик қилган. Кўплаб орден ва медаллар билан мукофотланган. Генерал-майор унвони билан пенсияга чиққан.



**Саттаров Ислом Ғаффорович, 1924 йилда туғилган.** 1943 йилдан фронтга сафарбар қилинган. Урушнинг сўнгги кунларигача жангларда қатнашди. Хизматни оддий пулемётчиликдан бошлаб, сўнгра бўлинма командири, 24-ўқчи дивизияда взвод командири ёрдамчиси даражасигача етди. Уруш йилларида «На Фронт!», «Фрунзевец» армия газеталарининг мухбири ҳам бўлган.

Урушдан кейинги йилларда ички қўшинлар сафида хизматини давом эттириб, Узоқ Шарқ, Узоқ Шимол, Магадан ва Чукоткада хизмат қилди.

1969 йилдан ИИВ тизимида турли лавозимларда хизмат қилган. 1973–1984 йилларда Тошкент шаҳар ИИБни бошқарган. Генерал-майор унвони билан пенсияга чиққан.

**«Эл-юрт осойишталиги генераллари» китобидан олинди.**

Postda На посту

*Хизматларда*

# ТАЪСИРЧАН НАЗОРАТ ЧОРАЛАРИ

**Ангрен шаҳар ИИБ Пробация бўлими рўйхатида озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо муддатини ўтаётган назоратдаги шахслар 478 нафарни ташкил қилади. Бўлим ходимлари томонидан психологик портретлари асосида ўрганишлар олиб борилиб, улар уч тоифага ажратилган. Шунга кўра, маҳкумларнинг 39 нафари жиноят содир этиш хавфи юқори, 109 нафари жиноят содир этишга мойил ҳамда 330 нафари тузалиш йўлига ўтган шахслар ҳисобланади.**





Ҳар ой якуни бўйича назорат остидаги шахслар тўлиқ тафтишдан ўтказилиб, улар билан келгусида такроран жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида манзилли профилактик тадбирлар олиб боріляпти.

– Жиноят содир этишга мойил ва жиноят содир этиш хавфи юқори бўлган тоифадаги маҳкумлар билан манзилли профилактик ишлар ташкил этилди, – дейди Пробация бўлими бошлиғи, майор Муроджон Тошпўлатов. – Албатта, бунда кенг жамоатчилик билан ҳамкорлик йўлга қўйилди ва мазкур шахслар устидан таъсирчан назорат чоралари кучайтирилди.

Жорий йилнинг ўтган даврида назорат остидаги шахсларни ишга жойлаштириш бўйича Бандликка кўмаклашиш ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш маркази билан ҳамкорликда 8 марта меҳнат ярмаркаси ўтказилиб, 78 нафар маҳкум иш билан таъминланди. Ахлоқ тузатиш ишлари жазосини ўтаётган, муайян касбга эга бўлмаган 6 нафар шахс касб-ҳунар мактабига ўқишга жойлаштирилди.

Амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижасида тузалиш йўлига ўтган, қилмишидан чин кўнгилдан пушаймон бўлган 80 нафар назоратдаги шахсга нисбатан инсонпарварлик далолатномалари татбиқ қилинди. Улар тайинланган жазодан муддатидан аввал шартли равишда озод этилди. Аксинча, берилган жазодан ўзига тегишли хулоса чиқариш ўрнига, уни ўташдан қасддан бўйин товлаган 24 нафар маҳкумнинг жазоси оғирроғига алмаштирилди.

**Михли САФАРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент вилояти.*

*Мавзу ва фикр*

# ИНСОНПАРВАРЛИКНИНГ МУҲИМ БЕЛГИСИ

**Мамлакатимизда «Инсон қадри учун» тамойилини амалга татбиқ этиш устувор вазифа этиб белгиланган. Айни пайтда амалга оширилаётган ислоҳотлар, аввало, инсон қадрини улуғлаш, унинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилгани билан аҳамиятлидир.**

Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳаси бевосита аҳоли билан ишлайдиган, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишда муҳим ўрин тутадиган соҳалардан бири ҳисобланади. Табиийки, мазкур соҳавий хизматда профилактик ҳисобга олинган шахслар билан ишлаш тизими самарадорлигини ошириш ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Айниқса, ушбу тоифадаги фуқароларни жамиятга муваффақиятли тарзда ижтимоий мослаштириш кутилган натижани беради. Яъни, профилактик ҳисобга олинган шахсларнинг ҳолатини доимий равишда назоратга олиш, келгусида маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этишига сабаб бўладиган омиллар ва шарт-шароитларни бартараф этиш уларнинг қайта нотўғри йўлга кириб қолишининг олдини олади.

**Бизнингча, профилактик ҳисобга олинган шахсларни ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштиришда, биринчи навбатда, уларнинг бандлигини таъминлаш талаб этилади. Зеро, муайян бир фойдали иш билан банд кишининг нафақат ўзига, оиласига, балки бутун жамиятга нафи тегади.**

Иккинчидан, мазкур йўналишдаги фаолиятда профилактик ҳисобга олинган шахснинг ижтимоий аҳволи оғир бўлса, унга моддий ёрдам бериш чораларини кўриш ниҳоятда зарур. Бу жараёнда турли ҳамкор ташкилотлар, ҳомийлар кўмагини жалб қилиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса шуки, билиб-билмай хатога йўл қўйган, профилактик ҳисобга олинган шахсни ижтимоий мослаштириш инсонпарварликнинг муҳим кўринишидир. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги ушбу фаолият мамлакатимиз ички ишлар органларини халқ манфаатларига хизмат қиладиган чинакам халқчил тузилмага айлантиришга хизмат қилади.

**Бахтиёр НОРИНБОЕВ,**
**ИИВ Академияси курсанти.**

## КЕЧА ВА БУГУН





■ г. Ташкент



# СЛЕДУЮЩИЙ ЭТАП – РЕСПУБЛИКАНСКИЙ

**Службой духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения ГУВД города Ташкента совместно с Союзом молодежи Узбекистана в рамках Программы совместных мероприятий по эффективной реализации государственной политики в отношении молодежи в системе Вооруженных Сил и правоохранительных органов Республики Узбекистан на 2023 год проведен городской этап интеллектуального турнира «Аждодлар изидан».**

В ходе конкурса члены команд продемонстрировали глубокое знание отечественной истории, отвечали на вопросы, касающиеся жизни и деятельности наших великих предков.

– Готовясь к мероприятию, вновь перечитали книги, повествующие об Амире Темуре, Алишере Навои, Захириддине Мухаммаде Бабуре, Жалолиддине Мангуберди, – отмечает лейтенант Фарангиз Эргашева. – Конкурс проходил напряженно, каждая команда стремилась к победе.

По итогам всех туров команда «Дипломат» ГУВД города Ташкента набрала наибольшее количество баллов и заняла первое место.

– Мы одержали победу, чем очень горды, – говорит лейтенант Анвар Халимов. – Впереди нас ждет следующий этап – республиканский.

**Соб. корр.**



■ Навоийская область

# КОМАНДА ЛИЦЕЯ – ПОБЕДИТЕЛЬ




**По инициативе Навоийского областного управления МЧС состоялось военно-спортивное соревнование «Юный спасатель».**

В нем приняли участие команды 15 общеобразовательных школ и 7 средних специальных профессиональных образовательных учреждений, победившие в состязаниях, проходивших в городах и районах области.

Выступления команд по 5 номинациям оценивали специалисты управления МЧС. Команда «Авангард» Навоийского академического лицея МВД Республики Узбекистан стала лидером.

**Соб. корр.**



■ Андижанская область

# ЖИТЕЛИ БЛАГОДАРНЫ

**Недавно сотрудники группы миграции и оформления гражданства ОВД №1 УКД ОВД по городу Андижану навестили граждан, не имеющих возможности самостоятельно передвигаться. С собой они привезли специальное мобильное оборудование. В этот день 18 человек стали обладателями ID-карт.**

– На обслуживаемой территории проживает 107 220 человек, – рассказывает старший сержант Жахонгир Кимсанов. – С начала года 2 928 граждан получили идентификационные карты, 3 472 – заграничные паспорта. Мы запросили списки тех, кто не может самостоятельно передвигаться. По графику выезжаем к ним и оформляем идентификационные карты.

Благодаря эффективной работе сотрудников подразделения сбор информации и оформление необходимых документов проходит в короткие сроки.

– С супругом утром пришли для оформления ID-карты, – говорит жительница махалли Икбол Людмила Петрова. – Нас сфотографировали, собрали информацию. После обеда карту получили. Спасибо за оперативность.

– Хочу проведать родственников, проживающих за рубежом, – рассказывает предприниматель Вадим Барский. – На прошлой неделе пришел сюда с целью оформления загранпаспорта. Сегодня получил его без всяких проблем. Сотрудники подразделения прекрасно выполняют свою работу!



– На прием приходят граждане с вопросами, касающимися гражданства Республики Узбекистан, – говорит старший сержант Ж. Кимсанов. – Наша страна привлекает условиями для проживания, ведения бизнеса, гостеприимностью населения. Объясняем нюансы получения внутреннего паспорта республики, что по закону документы подаются на имя главы государства, при этом подача осуществляется при помощи ОВД. Если претендент живет в другом государстве, ему понадобится собрать пакет необходимых документов и представить их в консульский отдел посольства Узбекистана. Иностранцы могут также оформить вид на жительство, который дает возможность трудоустроиться, получить образование, вести бизнес. В каждом случае даем необходимые разъяснения.

**Борис КЛЕЙМАН,**
**корреспондент**
**«На посту».**

***На снимке:*** *оператор отдела миграции и оформления гражданства ОВД №1 УКД ОВД по городу Андижану рядовой Умидбек Сиддиков.*

**Фото автора.**

*Salomatlik saboqlari*

# OSHKO‘KLARNI ISTE’MOL QILISH SHART

**O‘lkamizda qishin-yozin yetishib, yashnab turishi bilan ko‘zlarni quvnatadigan barra ko‘katlar inson organizmi uchun juda foydali. Har biri o‘ziga xos xushbo‘y bo‘lgan ushbu tabiat ne’matlari ovqat va salatlarga o‘zgacha maza va ko‘rk berib, ishtahani ochadi.**

### UKROP (SHIVIT) BOSH OG‘RIG‘INI BARTARAF ETADI

Ushbu ko‘kat temir moddasi va efir moylariga boy. Shivit qon bosimini tushirish xususiyatiga ega. Shuningdek, tomirlarni kengaytiradi, bu esa issiq ob-havo sharoitida organizmga yengillik baxsh etadi. U melatonin (uyqu gormoni) ishlab chiqishni yaxshilovchi aminokislotalar hisobiga uyqusizlikda yordam beradi. Bundan tashqari, barchaga ma’lumki, go‘dakning qorni og‘rib, bezovta bo‘lganda shivit suvi eng yaxshi vosita hisoblanadi. Shivit



damlamasiga botirilgan doka ko‘zga qo‘yilsa, charchoq va qizarishni oladi.

### KASHNICH QON BOSIMINI TUSHIRADI

Ushbu o‘simlik ftorga boy bo‘lib, tish emalining kariyes bilan kasallanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Tarkibidagi foliy kislotasi homilador ayollar uchun foydali. Bu ko‘katning atigi bir choy qoshiq sharbati arterial qon bosimini 5–10 birlikka kamaytirishga yordam beradi.



Kashnich tarkibidagi ftalitlar qon tomirlari devorlari mushaklarini bo‘shashtiradi, bu esa qon aylanishini yaxshilab, qon bosimini tushirishga yordam beradi.

### QARISHGA QARSHI KO‘K PIYOZ

Ushbu ko‘kat qonni yangilashga xizmat qiladi, atigi 50 gramida askorbin kislotasining kunlik me’yori, shuningdek, immun va asab tizimi uchun zarur bo‘lgan $V_1$ va $V_2$ vitaminlari mavjud. Uning tarkibidagi tabiiy kerotin moddasi sochlar o‘sishi va mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi.Bundan tashqari, ko‘k piyoz organizmdan saraton kasalini keltirib chiqaruvchi kanserogenlarni haydab chiqarish xususiyatiga ega. Ushbu mahsulot tarkibidagi foydali moddalarning hujayralar, ayniqsa, terining qarish jarayonini to‘xtatishi o‘z isbotini topgan. Shu bois, uzoq vaqt yosh ko‘rinishni istasangiz, ko‘proq ko‘k piyoz iste’mol qiling.



### SHOVUL JIGARNI TOZALAYDI

Shovul tanada qon ishlab chiqarilishida anchayin foydali ko‘kat hisoblanib, ovqat hazmini yaxshilaydi. Uning tarkibidagi olma kislotasi moddalar almashinuvini tezlashtirib,



jigarni tozalaydi. Shuning uchun to‘yib go‘shtli taom iste’mol qilgandan so‘ng uning bargini yaxshilab chaynash maqsadga muvofiq.

### ASABNI MUSTAHKAMLOVCHI RAYHON

Taomga o‘zgacha maza beruvchi hushbo‘y hidli rayhon tarkibidagi vitaminlar qon quyulishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uning o‘ziga xos yoqimli, ishtaha qo‘zg‘ovchi hidi kuchli bakteritsid ta’sirga ega bo‘lgan efir moylari miqdori ko‘pligi bilan izohlanadi. Doimiy horg‘inlik, charchoq, jizzakilik kayfiyatini yengishni is-



tasangiz, rayhonni choy kabi damlab iching yoki o‘simlikning bir nechta bargini yaxshilab chaynang. Rayhon ruhiy hayajon vaqtida yordam beradi, asab tizimini mustahkamlaydi, kayfiyatni yaxshilab, ish qobiliyatini oshiradi.

### VITAMINLARGA BOY SALAT BARGI

U qon tomirlari devorini mustahkamlaydi, xolesterinning chiqib ketishiga xizmat qiladi, shuningdek, qonda qand miqdorini tushi-



radi. Salat bargi vitamin, organik birikmalar va mikroelementlarga boy. Uning tarkibida qon aylanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi foliy kislotasi mavjud. Mazkur ko‘kat ovqat hazmini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini me’yorlashtiradi, asab tizimini tinchlantiradi va xotirjam, osuda uxlashga yordam beradi.

**Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

### ПОЧЕМУ ПРИ ПОВОРОТЕ ХРУСТИТ ШЕЯ?

Из-за сидячего образа жизни наши суставы начинают хрустеть намного чаще. Иногда шея хрустит так сильно, что кажется, будто сейчас в ней что-то сломается. Но можно ли и вправду себе что-то повредить, если резко повернуть шею?



Хруст в шейном отделе позвоночника нормален, если учесть по большей части сидячий образ жизни современных людей. Он связан с тем, что при длительном напряжении в шейном отделе мышцы начинают спазмироваться, сжимаясь при этом. У спазмированных мышц объем доступных движений снижается, поэтому когда мы начинаем поворачивать голову из стороны в сторону,



мышцы и связки перерастягиваются, и все начинает хрустеть.

Причины хруста в шее могут быть безопасными и опасными. В здоровом организме хруст происходит из-за очень подвижных суставов при недоборе массы, а также несбалансированной работе мышц у спортсменов, малого количества суставной жидкости



у младенцев, воздушных пузырьков между позвонками, неправильной осанки и усталости.

### КАК ИЗБАВИТЬСЯ ОТ ХРУСТА?

Помогут гимнастика, массаж, активный образ жизни и сбалансированное питание – полезные вещества содержатся во фруктах и овощах. Причиной хруста в шее является и недостаток витаминов и кальция в организме. Решить проблему можно и медикаментозным путем. Но прежде чем выполнять какие-либо упражнения, принимать лекарственные средства и бады, проконсультируйтесь с врачом.

### ОПАСНО ЛИ ЭТО?

Сам по себе хруст в шее не опасен, однако резкие повороты головы, сопровождающиеся хрустом, могут привести к опасным состояниям, вплоть до инсульта. Во избежание последствий можно попробовать избавиться от этой привычки и просто время от времени делать естественные круговые движения.

Если вас беспокоит хруст и щелчки в шее, обратитесь к неврологу. Врач расскажет, является ли ваш случай отклонением. Причины могут заключаться в различных болезнях: остеохондрозе, спондилезе, спондилолистезе, лордозе, артрозе, грыжах. После осмотра невролог отправит вас на рентген, МРТ, КТ или УЗИ. Перечисленные заболевания лечатся разными путями, на начальных этапах прибегают к консервативному лечению назначенными препаратами.

**Tavsiyalarga amal qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.**

*Месячник духовности*

# КОНКУРС КНИГОЛЮБОВ



**В Хорезмском академическом лицее МВД Республики Узбекистан состоялся конкурс книголюбов. Цель мероприятия – развитие читательской культуры молодежи.**

Конкурс включал блиц-опрос, ответы на тестовые вопросы по трудам великих мыслителей, произведениям отечественных и зарубежных авторов, а также представление эссе на тему «Мой любимый герой».

По итогам всех туров первое место занял учащийся 101-й группы Умрбек Комилов, второе место – учащийся 103-й группы Гуломжон Гуломов, третьего места удостоен учащийся 105-й группы Жавохир Сотимбоев. Победители награждены дипломами и памятными подарками.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**
**корреспондент «Postda».**
*Хорезмская область.*



## ИСТОРИЯ И ФАКТЫ



Во время войны на различных фронтах служило свыше 60 тысяч собак. Четвероногие бойцы пустили под откос десятки вражеских эшелонов. Собаки-связисты доставили около 200 тысяч боевых донесений. На санитарных упряжках четвероногие помощники вывезли с поля боя около 700 тысяч тяжелораненых. С помощью собак-саперов разминировано 303 города и населенных пункта. При этом обнаружено и обезврежено свыше четырех миллионов единиц вражеских мин и фугасов.



* * *

На поле боя собаки-санитары подползали к раненому и подставляли ему медицинскую сумку. Терпеливо ждали пока боец перевяжет рану и направлялись к другому солдату. Многие раненые были в бессознательном состоянии. Таким солдатам собаки лизали лицо, пока они не очнутся.

# ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ
## (с 8 по 14 мая)



**Овен.** Используйте природное обаяние, чтобы завоевать симпатии влиятельных людей. Чем больше у вас единомышленников, тем сильнее авторитет. Полезно работать над связями, установлением контактов с другими компаниями. Может случиться мощный толчок в развитии бизнеса.



**Телец.** Возможно тревожное состояние, которое Тельцы не смогут ничем объяснить. Необходимо переключить внимание на что-то приятное. Проведите время с друзьями. Не исключено получение выгоды от дела, которое Тельцы уже посчитали бесперспективным. Удачными окажутся идеи бизнеса, в том числе, озвученные приятелями.



**Близнецы.** Близнецы прекрасно проведут время, если запланируют активное развлечение. Приведут в тонус состязания, конкурсы, групповые тренировки в зале. Досуг в большой компании подарит много радостных моментов. Неудачными могут оказаться новые проекты, дорогостоящие покупки. Работоспособность высокая.



**Рак.** Раки могут встретиться с непониманием и раздражением окружающих. Будьте избирательны в своих контактах. Представится возможность поработать над самооценкой. Вас могут выбрать представителем команды, поручить важное дело. Сделайте упор на здоровое питание.



**Лев.** Львы без особого труда укрепят авторитет в коллективе. Окажите помощь коллегам, дайте профессиональный совет. Отнеситесь с пониманием к ошибкам подчиненных. Импульсивные действия будут иметь успех. Возможны положительные изменения в сфере карьеры.



**Дева.** Активность и энергичность поможет в делах. Самочувствие прекрасное. Можно браться за решение сложных задач. Сконцентрированость на деловых вопросах принесет плоды. Воздержитесь от дальних поездок. При решении сложных задач опирайтесь на жизненный опыт.



**Весы.** Прежде чем браться за дело, подумайте, а хватит ли вам ресурсов, и какой результат хочется получить. При сомнительных перспективах займитесь чем-то более простым. Максимум пользы принесут спортивные занятия, оздоровительные процедуры. Настало время для серьезного проекта или важного дела, которое долгое время откладывали.



**Скорпион.** В спорах с людьми проявляйте дипломатичность. Дружелюбие, спокойствие – вот ваш ключ к успеху. Многие контакты принесут положительные изменения в жизни. Улучшится атмосфера в рабочем коллективе и семье. Возможны предложения, касающиеся карьеры.



**Стрелец.** Не стоит зацикливаться на мелочах и уделять больше внимание деталям. Они не сыграют роли. Стрельцам следует сосредоточиться на развитии своих навыков, оттачивании мастерства. Хорошее настроение и веру в себя поможет обрести общение со второй половинкой. Спланируйте интересный совместный досуг.



**Козерог.** Мелкие преграды переступайте сразу же. Не накапливайте проблемы, иначе потом они свалятся как снежный ком. Удачный день для укрепления семейных уз, встреч за большим столом. Вы получите от родственников хороший совет, поддержку, в которых так нуждаетесь.



**Водолей.** Радость принесет отдых на природе, игры с детьми или домашними любимцами на свежем воздухе. Можно заняться спортом, посадить любимые цветы. С высказываниями мнения, критикой будьте осторожны. Ваши слова принимают слишком близко к сердцу.



**Рыбы.** Будьте открыты для общения. Вероятно несколько приятных сюрпризов – удачные совпадения, неожиданная покупка вещи, о которой вы мечтали, выгодное предложение. Рыбам нужно быстро реагировать. От скорости принятия решений будет зависеть результат. Будьте наблюдательны и активны, чтобы не упустить шанс добиться улучшений в карьере и финансах.

KINOTASMA

# «QIRQ BIRINCHI YIL OLMASI»

## yoxud bobolar ibrati



**«Biz bu yerga olma olib keldik. Yaxshi olma, uch kishi olib keldik. Odil, Mansur va men. Obkeldig-u, sizlarga yeta olmadik, o‘rtoq jangchilar. Fashistlar qochib ketibdi, yo‘llar buzilgan. Iltimos, kimda-kim frontga o‘q-dori, oziq-ovqat olib ketayotgan bo‘lsa, Qozon vokzalidagi yuk topshiradigan hovliga kelsin, olmadan olib ketadi. Iltimos qilaman, olmadan olib ketinglar».**

«Qirq birinchi yil olmasi» filmida yangragan bu so‘zlar har birimizning qalbimizda o‘sha suronli yillar bilan bog‘liq xotiralarni uyg‘otadi. 1969-yil rejissyor Ravil Botirov tomonidan ishlangan ushbu film ayovsiz urush, jang sahnalarini bir chetga surib, mazkur yo‘nalishga xos bo‘lmagan mutlaqo o‘zgacha yondashuv bilan ishlangan kinoasardir. Ya’ni, filmda bugungi ko‘nikmalarga mos tushuvchi jang sahnalari yo‘q, qahramonlar ham zamonaviy tomoshabin o‘rgangan yengilmas pahlavonlar emas, balki munkillagan uch nafar qariya. Biroq ayni shu keksalar 1941-yil dushman qadami tobora yaqinlashib kelayotgan Moskvaga askarlar uchun O‘zbekistondan olma olib borishning uddasidan chiqadi.

Yo‘l davomida ularning har qanday vaziyatda ham odamiylikni saqlab qolishga erishgani va o‘z zimmalaridagi vazifani yuksak mas’uliyat bilan ado etishlari asnosida otaxonlarning mazkur ishi ulkan insoniy jasoratga aylanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston xalq artisti Nabi Rahimov o‘zbeklarga xos bag‘rikenglik, saxovat, fidoyilik, mardlik va jasorat timsolini tom ma’noda tomoshabin qalbiga o‘ziga xos samimiyat va mahorat bilan yetkaza olgan. Oradan necha yillar o‘tsa-da, kinokartina muxlislar nigohiga sinovli yillardan bir lavha bo‘lib singib ketganining siri ham shunda.

Film voqea ichida voqea ko‘rinishida kechib, sodda syujetga qurilgan. Kinorejissyorlik yo‘nalishida tahsil olayotgan Anvar (Sh. Ergashev) tasodifan keksa choyxonachi (N. Rahimov) bilan suhbatlashib qoladi va otaxonning unga 1941-yilda qanday qilib Moskvaga olma yetkazgani haqida so‘zlab berishi parallel kechuvchi ikkita voqea rivojini yuzaga keltirgan. Bunday yondashuv filmda faqatgina qariyalarning urush yillaridagi jasoratini ko‘rsatish emas, balki o‘sha jasoratga urushdan keyin voyaga yetgan yoshlar nigohi bilan munosabat bildirishga urg‘u berilganini anglatadi.

Film voqealari rivojida uch nafar qariyani manzilga yetib borgunga qadar bitta muammo ta’qib qiladi, ya’ni vagonlarni tortuvchi parovoz yo‘qligi muammosi. Nafaqat ularga, balki yaradorlarni olib ketish uchun ham, evakuatsiya qilingan aholini kerakli manzilga yetkazib qo‘yishga ham parovoz topilmaydi. Bu esa aksar muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi: yaradorlar ochiq havoda, odamlar vokzalda sarson, front uchun kolxoz berib yuborgan olmalar ham sovuq vagonlarda qolib ketgan. Filmda poyezd yetishmovchiligining bu kabi qayta-qayta ta’kidlanishi bejiz emas, chunki poyezd o‘sha vaqtda qahramonlarni maqsadga yetkazuvchi asosiy vosita, maqsad esa olmalarni frontdagi jangchilarga olib borish edi. Olmalar ham o‘zbek xalqining mehrini, g‘alabaga bo‘lgan ishonchi va umidini ifodalovchi, fashistlarga qarshi otilgan «o‘q» singari ramziy ma’noga ega bo‘lsa, poyezd davr murakkabliklarini tasvirlovchi va qahramonlar jasoratiga yo‘l ochuvchi timsol vazifasini o‘tagan.

Ha aytgancha, film bag‘rikeng o‘zbek xarakteri ufurib turgan qahramonlari tilidan aytilguvchi insonni o‘ylashga, hayot saboqlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undovchi xalqona qochirim, so‘z o‘yinlariga ham boy.

Aslida ushbu film mohiyatida olma ulashish barobarida, insonlarning bir-biriga mehr-oqibat, yaxshilik, ezgulik sog‘inishidek ulkan falsafiy maqsad, bobolarimizning insoniylikni har qanday vaziyatda ulug‘lagani, saxovatli va qo‘li ochiq bo‘lgani bilan bog‘liq ibrat bor.

**Gulnoza TURG‘UNBOYEVA tayyorladi.**

VOLEYBOL

# NAVBAT— RESPUBLIKA BOSQICHIGA

**Sportning voleybol turi bo‘yicha 3-sektor hududida joylashgan umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida «Ichki ishlar vaziri kubogi» uchun o‘tkazilayotgan musobaqaning Toshkent viloyati bosqichi bo‘lib o‘tdi.**



Yakuniy natijalarga ko‘ra, o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘zining o‘yin uslubi, shijoati va tezkorligi bilan tomoshabinlarni lol qoldirgan Olmaliq shahri o‘quvchilaridan iborat terma jamoa g‘oliblikka erishdi. Qizlar ishtirokidagi bahslarda esa, Quyichirchiq tumani sportchilariga teng keladigan raqib topilmadi.

Har ikkala jamoa vakillari musobaqaning respublika bosqichida qatnashish huquqiga ega bo‘lishdi. Shuningdek, ularga bosh boshqarmaning diplom va qimmatbaho esdalik sovg‘alari hamda Samarqand viloyatiga sayohat uchun yo‘llanma berildi.

**O‘z muxbirimiz.**



Postda
На посту

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir – polkovnik Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari – mayor Azizjon FAYZIYEV, kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas’ul kotiblar – Jahongir SHAROFBOYEV, Erkin SATTOROV

Navbatchilar – Sarvar SOBIROV, Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar – Zokir BOLTAYEV, Ilhom JUMANOV, Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar – Abu KENJAYEV, Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi. Shaxsiy h/v 4700108602628770311011 79001 STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №V-5476.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50797 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.